

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası**

Tillayeva Mohira Saydullayevna

**USMON AZIM SHE‘RIYATINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar: f.f.n. G‘afforov A.

SAMARQAND - 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasini**

Tillayeva Mohira Saydullayevna

**USMON AZIM SHE‘RIYATINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

**5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
Malakaviy bitiruv ishi**

Ilmiy rahbar

G‘afforov A.

Rasmiy taqrizchi

Yaxshiboyev G‘.

Malakaviy bitiruv ishi o‘zbek tilshunosligi kafedrasining 2013 yil 28-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(9-son bayonnoma).

Kafedra mudiri

prof. Abdusaidov A.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

YaDAK raisi

prof. Haqqulov I.

A‘zolari:

SAMARQAND - 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
Tillayeva Mohira Saydullayevna
USMON AZIM SHE‘RIYATINING
LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI
5220100 – Filologiya(o‘zbek filologiyasi)
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi**

Malakaviy bitiruv ishi

Ilmiy rahbar G‘afforov A.

SAMARQAND - 2013

REJA

I. KIRISH

II. USMON AZIM SHE'RIYATIDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

1. Usmon Azim she'riyatida troplarning lingvopoetik xususiyatlari;
2. Usmon Azim she'riyatida uslubiy figuralarning lingvopoetik imkoniyatlari;
3. Bob xulosasi.

III. LINGVOPOETIK VOSITALAR MILLIY AN'ANA VA QADRIYATLARNI IFODALOVCHI VOSITA SIFATIDA

1. Shoir ijodida milliy an'ana va qadriyatlarni ifodalovchi lingvopoetik vositalarning funksional-stilistik xususiyatlari;
2. Lirik qahramon ruhiy holatini yoritishda milliy an'ana va qadriyatlarni ifodalovchi lingvopoetik vositalarning badiiy-estetik imkoniyatlari;
3. Bob xulosasi.

IV. UMUMIY XULOSALAR

V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda ilm-fanning yangi yutuqlarga erishishi, pragmatolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, neyrolingvistika, gender tilshunoslik kabi turli-tuman sohalarga qiziqish kuchayganligi va bu sohalarda ham ko'zga ko'rinarli ishlarning amalga oshirilayotganligi ham shubhasiz, yurtimizning milliy mustaqilligiga ega bo'lishi bilan bog'liq va bugungi kunda faxr bilan ayta olamizki, mazkur yutuqlar milliy istiqlolimiz mevalaridir. Til, uning ifodalanish shakllari va badiiy matnda til vositalarining tutgan o'rnini belgilash bilan bog'liq masalalar — tilshunoslikning asosiy obyekti va muammolaridan biri hisoblanadi hamda u nihoyatda mashaqqatli va ko'p qirrali jarayonni qamrab oladi. U kishilarning kommunikativ ehtiyojlari tufayli tildagi mavjud imkoniyatlarni o'zida aks ettiradi. Badiiy asar ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq holda xalq hayotidagi har bir yangilikni, til lug'at tarkibidagi har bir o'zgarishni o'zida aks ettiruvchi vosita sifatida tilshunoslarning asosiy diqqat markazida bo'lib, tadqiqotchilarni doimo qiziqtirib kelgan. O'zbek tilshunosligining mustaqillik davridagi taraqqiyoti xalqimiz hayotidagi eng muhim hodisa bo'lib, uning boshqa fan sohalari qatori izchil rivojlanishini ta'minlab berdi. U o'zining o'tgan qisqa davr ichidagi taraqqiyoti davomida nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashdi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida shunday yozadi: “Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab, adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkorlari - ularni barchasining nomlarini zikr etish, albatta, ko'p vaqtni talab qilgan bo'lur edi, bunday insonlar yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni

rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning ezgu mehnatini qadrlash va munosib rag‘batlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar o‘z hosilini berayotgani, badiiy adabiyotimiz mavzular ko‘lami jihatidan ham, janrlar nuqtai nazaridan ham rang-barang bo‘lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo‘layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi. Bularning barchasi milliy tiklanish jarayonlari qalam axlining ijodiy izlanishlari uchun qanday katta ufqlar ochib berganini yana bir bor ko‘rsatadi”¹. Keyingi yillarda tilshunoslarimiz e‘tibori alohida olingan shoir va yozuvchilar individual uslubi, badiiy matn va u bilan bog‘liq muammolar yechimini topishga qaratilayotganligi seziladi. Shu asosda tilshunoslikda matn lingvistikasi, lingvopoetika kabi sohalari shakllanib ulgurdi desak, xato bo‘lmaydi. Demak, hozirgi kunda tilshunoslar e‘tiborini tortib kelayotgan badiiy matnlarda inson obrazini to‘laqonli namoyon qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi lingvopoetik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlarini shaxs va til munosabatiga aloqadorlikda tadqiq etish bevosita zamonaviy tilshunoslik bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganilishni taqozo etmoqda. Ishga bu tarzda amaliy yondashish keyingi yillarda ko‘plab tilshunoslarni qiziqtirib kelayotgan badiiy asar tilini lingvistik jihatdan tahlil qilishda kutilgan natijalarni berishi shubhasiz. Chunki «lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning ma‘lum bir ko‘rinishda namoyon bo‘lishidir»².

O‘zbek tilshunosligida matn tahlili bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan lingvopoetikaning alohida yo‘nalish sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo‘chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, S.Karimov, B.Yo‘ldoshev, M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzayeva kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi³. Ular

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008, 136-137-бетлар.

² Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006, 9-бет.

³ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962. Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981. Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс... док.филол.наук. – Ташкент, 1992. Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.

alohida olingan ijodkorlar asarlarini tili va uslubi, asarlarda qo'llanilgan lingvopoetik vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini maxsus o'rganib, ko'zga ko'rinarli ishlarni amalga oshirdilar.

Hikoyalar tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalarni aniqlash bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanov shunday fikrlarni bildiradi: "Individuallik, yagonalik yozuvchining ijod jarayonida so'z tanlash san'ati bilan belgilanadi. Bu o'z o'rnida yozuvchining lisoniy shaxsiyatini, ya'ni badiiy tafakkurini, shaxsiy idrok tarzini, qolaversa, lisoniy layoqati – lingvistik mahoratini namoyon etadi. Ayniqsa, individual uslub tushunchasi biror muallif asarlari tilini unga zamondosh ijodkor asarlari tili bilan qiyosiy tadqiq qilinganda yanada oydinlashadi. Chunki yozuvchi uslubida san'atkor tomonidan estetik jihatdan qo'llangan barcha til vositalari uning badiiy tafakkuri bilan ichki bog'liqlik asosida birlashadi.

Badiiy asar tilini o'rganish keng qamrovli jarayon bo'lib, nafaqat adabiyotshunoslikka oid badiiy g'oya, fikr, umumiy obrazlilik, individuallik, badiiy mahorat, shuningdek, tilshunoslikka oid semiotika, konnotatsiya, pragmatika kabi tushunchalarni umumlashtiradi, kognitiv fan sohalari bilan ham bog'lanib, o'zining tahlil doirasini bilish, tushunish, idrok etish, tahlil qilish, lisoniy tafakkur, lisoniy ong, lisoniy faoliyat, lisoniy shaxsiyat kabi tushunchalar bilan ham kengaytirib boradi. Ishga mana shu tarzda kompleks yondashish lingvopoetika uchun kutilgan natijalarni beradi"¹.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda yaratilgan ishlarga xolisona baho berar ekan, professor I.Mirzayevning "so'z san'ati, til mahorati, badiiy nutq stilistikasi, so'z estetikasi, badiiy adabiyotda so'z kabi mavzularda yozilgan ishlarni lingvopoetik tadqiqotlar sirasiga kiritish maqsadga muvofiq emas. Chunki stilistika bilan lingvopoetika batamom boshqa-boshqa fanlardir [Bu haqda V.P.Grigoryevning «Poetika slova» (M.: Nauka, 1979) kitobining «Lingvopoetika

¹ Hasanov A.A. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. - Тошкент, 2010, 8-бет.

va stilistika» fasliga qarang]. Shuningdek, lingvopoetikani tilshunoslik fanlari qatoriga qo'yish ham to'g'ri emas: lingvopoetika tilshunoslik, adabiyotshunoslik va shevashunoslik fanlarida erishilgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etib, filologiyaning yaxlitligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan filologik fandır”¹ degan fikrlari diqqatga molik.

Olim to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, lingvopoetika o'zbek tili yashirin imkoniyatlarini o'zida namoyon qiluvchi filologik fandır. Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash esa badiiy matnlarga tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo qiladi. Tilshunoslikda badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish bo'yicha ayrim ishlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, iqtidorli shoir Usmon Azim she'riyati va uning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq doirasidan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun Usmon Azim she'riyati lingvopoetik xususiyatlarining tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlilga tortilishi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Usmon Azim she'riyatida poetik matnlar tilining o'ziga xosligi, ularda qo'llanilgan, tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi troplar va uslubiy figuralarning lingvopoetik imkoniyatlari ochib berish va ularning poetik matnlarda badiiy tasvir berishda, lirik qahramon ichki dunyosini tasvirlashda, ma'no kuchaytirishda muhim vazifa bajarishini shoir ijodidan olingan misollarni tahlil qilish orqali ko'rsatib berish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Tadqiqot ishida mazkur mavzu mohiyatini ochib berish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- o'zbek tilining, xususan, badiiy matnlarning lingvopoetik jihatdan tadqiq etilishi va bu sohadagi mavjud muammolar to'g'risida fikr yuritish;

- o'zbek tilshunosligida lingvopoetika bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar, amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish va ularning mavzuga daxldorlik darajasini belgilash;

¹ Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлиliga бағишланган янги тадқиқот ҳақида. – Филология -10. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010, 49 - бет.

- troplar va uslubiy figuralarning lingvopoetik vosita sifatida badiiy matnlarda va Usmon Azim ijodida tutgan o‘rnini aniqlash ;

-lingvopetik vositalarning paydo bo‘lishi va shakllanishi haqida fikr yuritish;

-troplarining Usmon Azim she’riyatida qahramon ichki kechinmalari, ruhiy holatini ochib berishdagi o‘rnini belgilash;

-metafora hodisasining o‘ziga xos xususiyatlarini shoir she’riyatini tahlil qilish orqali ko‘rsatib berish;

- metonimiya hodisasi va uning boshqa hodisalarga o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash;

-sinekdoxa hodisasining lingvopoetik xususiyatlarini tahlilga tortish;

- lingvopoetik vositalarning Usmon Azim ijodida qo‘llanishini tahlil qilish orqali ulardagi o‘ziga xoslikni aniqlash;

- Usmon Azim she’riyatida milliy an’ana va qadriyatlarni ifodalovchi lingvopoetik vositalarning qo‘llanishi haqida mulohaza yuritish;

- Usmon Azim she’riyatida xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlarni, milliy-ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi lingvopoetik vositalarni belgilash;

- lingvopoetik vositalarning badiiy matndagi obrazlilik hosil qilishdagi badiiy-estetik vazifasini aniqlash;

- Usmon Azim she’riyatida emotsional-ekspressiv ma’no hosil qiluvchi lingvopoetik vositalarni ma’lum bir guruhlariga ajratish va ularning badiiy matndagi o‘rnini belgilash;

- kuzatish natijalarini umumlashtirish.

Bitiruv ishining **ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

- bitiruv ishida o‘zbek tili lingvopoetik vositalarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil etilib, ulardagi fikrlar umumlashtirildi;

- mustaqillik davrida Usmon Azim tomonidan yaratilgan she’riy asarlar asosida lingvopoetik vositalarning she’riy matnlarda qo‘llanish imkoniyatlari ochib berildi;

- lingvopoetik vositalarning yuzaga kelishiga asos sifatida ishtirok etuvchi vositalar aniqlandi hamda Usmon Azim she'riyatida qo'llanuvchi vositalarning o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berildi.

Malakaviy bitiruv ishining metodologik asoslari va tadqiq usullari. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy o'zlikni anglash, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash, ona tilimizni funksional-stilistik jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari tadqiq jarayonida metodologik asos sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari o'zbek tilshunos olimlari Sh. Shoabdurahmonov, U. Tursunov, A. Hojiyev, R. Qo'ng'urov, E. Begmatov, N. Mahmudov, I. Mirzayev, B. Yo'ldoshev, S. Karimov, M. Yo'ldoshev, B. Umurqulovlarning lingvopoetika bo'yicha bildirgan ilmiy-nazariy fikrlariga ham tayanildi.

Tadqiqot manbalari. Usmon Azimning mustaqillik davrida turli yillarda nashr etilgan she'riy asarlari to'plamlaridan olingan misollar kuzatish olib borishda asosiy manba vazifasini o'tadi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. O'zbek tilshunosligida lingvopoetika muammolariga bag'ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli bo'lganligi sababli mazkur malakaviy bitiruv ishi katta ahamiyat kasb etadi. Ishda to'plangan materiallar, kuzatish natijalaridan lingvopoetika, Usmon Azim she'riyati, unda qo'llanilgan birliklarning lingvopoetik imkoniyatlarini tadqiq etish bo'yicha ilmiy asarlar yozishda foydalanish mumkin. Ishdagi materiallardan kelgusida filologik yo'nalishda magistrlik va malakaviy bitiruv ishlari yozishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, ulardan lingvopoetika bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda til birliklarining matnda tutgan o'rni, lingvopoetik vosita sifatida qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatishda foydalanish ham mumkin.

Tadqiqot ishining kafedra ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2011-2015 yillarga mo'ljallangan "O'zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)»

mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan bajarilgan. Tadqiqot mavzusi o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2012 yil 14 sentabrdagi 2-son majlisi qarori bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot ishi Samarqand Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2013 yilning 28-mayida bo'lib o'tgan 9-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tugallangan ish sifatida himoyaga tavsiya etilgan.

Ishning tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi «Ishning umumiy tavsifi», ikki asosiy bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 79 sahifani tashkil etadi.

1. USMON AZIM SHE'RIYATIDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

Badiiy matn bilan bog'liq muammolarni o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi davomida shakllangan o'ziga xos milliy xarakteri, urf-odatlari, milliy qadriyatlari va an'analarini yaxshi bilmasdan turib, bu haqda ilmiy-nazariy xulosalarga kelish aslo mumkin emas. Chunki badiiy ijod, adabiyot millat ma'naviy qiyofasining yorqin ifodasi bo'lib, ular bir – biri bilan chambarchas bog'liqdirki, bu bog'liqlik xalqning tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar, tili lug'at tarkibidagi yangiliklar bilan ajralmasdir.

Badiiy matn deganda, ma'lum bir xalq, ijtimoiy guruh o'rtasida asrlar mobaynida avloddan – avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklarning badiiy tarzda, tildagi badiiy vosita va usullar yordamida o'z ifodasini topishi tushuniladi. Badiiy ijodga muayyan millat yashaydigan joy, uning turmush tarzi, siyosiy-iqtisodiy sharoiti, e'tiqodi, urf-odat va milliy qadriyatlari jiddiy ta'sir ko'rsatadi va bu o'z – o'zidan badiiy ijodda o'z aksini topadi.

Yuqorida qayd etilgan ichki va tashqi omillar ta'sirida har bir millatning boshqa millatlardan ajratib, farqlab turadigan o'ziga xos milliy xususiyatlari bo'ladi. Mazkur xususiyatlarni ko'rsatib berish shoir va yozuvchilarning tildagi mavjud leksik va frazeologik birliklardan foydalanish mahoratiga bog'liq bo'lib, bu ularning individual uslubini belgilab beradi.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar ham o'z ko'lamini tobora kengaytirib doimo o'sish va o'zgarishda ekanligi seziladi. Matn tahlili bilan bog'liq ishlarda shaxs va til o'rtasidagi aloqadorlikni yoritib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prof. Sh.Safarov to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, «Natijada tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji kuchaymoqda»¹. Demak, olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan muammo, ya'ni hozirgi kunda

¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006, 7-бет.

tilshunoslar e'tiborida turgan shaxs va til munosabati matn bilan bog'liq kuzatishlarda bevosita mavzu mohiyatini yoritishda kognitiv yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Tilshunoslar tomonidan tan olingan tadqiq usullari poetik matnlarni, xususan, Usmon Azim she'riy asarlari tilini lingvistik jihatdan tahlil qilishimizda ham yordam beradi. Alohida olingan ijodkor asarlarida qo'llanilgan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ya'ni «lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning ma'lum bir ko'rinishda namoyon bo'lishidir»¹.

O'zbek tilshunosligida lingvopoetik yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda xalqimiz orasida yetishib chiqqan so'z san'atkorlarining badiiy ijodlari, ular tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tilining uslubiy, badiiy-estetik jihatlari haqida so'z yuritilgan, ularda yozuvchi yoki shoirning o'ziga xos tili va uslubi, badiiy til vositalaridan foydalanish mahorati, milliy an'ana va qadriyatlarimizga bo'lgan munosabati, voqea-hodisalar tasvirini berishda o'ziga xos yangidan yangi so'z va iboralar yaratishi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritilgan. A.Qahhor hikoyalari tilining badiiyatini ta'minlovchi leksik-stilistik vositalar bo'yicha kuzatishlar olib borgan A.Hasanov o'zbek tilshunosligida badiiy matnlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda erishilgan yutuqlarni qayd qilar ekan, shunday fikrlaydi: "Ayniqsa, M.Yo'ldoshev tomonidan badiiy matn lingvopoetik xususiyatlarining o'zbek tilshunosligida birinchi marta dissertatsion planda tadqiq etilishi bu boradagi ishlarni yana bir pog'ona yuqoriga ko'tardi. Olim badiiy matnni lingvopoetik tahlil etishning yetti tamoyilini: shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi, matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash, badiiy matnga badiiy-estetik butunlik sifatida yondashish va asar konseptini aniqlash, badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash, badiiy matndagi eksplisitlik va implisitlik nisbatini aniqlash, badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash

¹ Сафаров III. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006, 9-бет.

tamoyillarini ishlab chiqdi”¹. Darhaqiqat, har bir ijodkorning til birliklarini tanlashdagi o‘ziga xosligi u tomonidan yaratilgan badiiy matnda, u qanday ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, namoyon bo‘ladi. Badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish orqali shoir yoki yozuvchining o‘ziga xos uslubiy mahorati haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish mumkin.

Badiiy matnning asosiy quroli so‘z hisoblanadi. “Tilshunoslik fani badiiy adabiyot bilan uzviy aloqadadir. Chunki til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo‘lib qolmay, balki tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an’anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o‘rganish obyekti bo‘lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikaning o‘rganish obyektidir”,-deb yozadi A.Nurmonov va Sh.Iskandarova. “Lingvopoetika — lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llanilgan lingvistik birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika badiiy nutqni o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Bu atamalar ifodalangan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o‘zaro ma’lum jihatlari bilan farq qiladi. "Obraz", "Uslub", "Ko‘chim (trop)", "Badiiy til", "Stilistika", "Poetika" kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetika uchun daxldor tushunchalardir...

Amalda keng qamrovli obyektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko‘rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o‘z ichiga oladi.

¹ Ҳасанов А.А. А.Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар
Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. -Тошкент, 2010, 8-бет.

Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko‘rinishi, bir fragmenti hisoblanadi. Badiiy nutqni o‘rganuvchi LP (lingvistik poetika) ham til sistemasining barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo‘g‘inlarning takrorlanishi she’riyatda go‘zallikni, ta’sirchanlikni ta’minlovchi vosita sanaladi. Leksik sathda leksemalarning ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi ham LPning tekshirish obyekti sanaladi.

Shuningdek, gap bo‘laklarining o‘rinlashishi, gap tarkibida bir xil bo‘laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi. Shunday qilib, LP tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o‘rganishiga qarab fonetik poetika (FP), leksik poetika (LP), sintaktik poetika (SP) kabi qismlarga bo‘linadi.

LPning har qaysi turini alohida-alohida o‘rganish va ularning o‘zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir”¹.

Ijodkor til birliklarini o‘rinli qo‘llay olsagina u tomonidan yaratilgan asar o‘quvchi tomonidan yaxshi qabul qilinadi. To‘g‘ri tanlangan til vositalari badiiy matnda qo‘llanilar ekan, o‘quvchiga badiiy-estetik ta’sir qilish vositasiga aylanadi va unda asarda tasvirlangan voqea-hodisa, kishilar xarakter-xususiyatlari badiiy tarzda o‘z ifodasini topadi. Bu esa badiiy asar ijodkori tili va uslubi to‘g‘risida ma’lum bir xulosalarga kelishga asos bo‘ladi.

Usmon Azim ijodida lingvopoetik vositalar muhim o‘rin egallaydi. Shoir she’riyati tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish jarayonida uning badiiy tasvirning usul va vositalarini yaxshi bilishi va o‘z she’rlarida ulardan mohirona foydalana olishining guvohi bo‘lamiz. Tahlil jarayonida shoir asarlarida lingvopoetik vositalarning keng qamrovli ekanligi, ularning xalqona ohang hosil

¹ Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). – Тошкент, 2008, 151-152- бетлар.

qilishda, takrorlanmas badiiy obrazlar yaratishda hamda boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan turli xil ma'no nozikliklarini poetik tasvirlashda eng muhim vositalardan ekanligi tobora oydinlasha boradi. Tilimizda badiiy asar tilining emotsional-ekspressivligi, obrazlilikini ta'minlashga xizmat qiluvchi bunday vositalar "lingvopoetik vositalar", "troplar", "uslubiy vositalar", "stilistik figuralar" kabi turli nomlar bilan yuritiladi.

Tilshunos olim N.Mahmudov shunday fikrlarni bildiradi: "Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi"¹. Olimning bu fikrlari tilshunos S.Karimov tomonidan yanada aniqlashtirilganligi kuzatiladi. Olim badiiy uslubda ifoda-tasvir vositalarining qo'llanishini tahlil qilar ekan shunday fikrlarni bayon qiladi: "Ularning troplar deb ataluvchi qismi obraz yaratishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi bir qismi – uslubiy figuralar esa, garchi obraz yaratmasa-da, ana shu obrazlarning shakllanishiga, barkamol, pishiq bo'lishiga, o'quvchining matnni to'g'ri va tez tushunib olishiga ko'maklashadi. Ko'chma ma'noda qo'llanilayotgan, obraz yaratayotgan til birliklari darajasida bo'lmasa ham, ular vaziyatga qarab qo'shimcha ma'no ifodalaydi, tasvir obyektiga ijodkor bahosini beradi, yuksak emotsionallikni yuzaga keltiradi. O'quvchi yoki tinglovchidagi hissiyotlarning junbushga kelishida tezlashtiruvchi vosita rolini – katalizatorlik vazifasini bajaradi, yozuvchiga ko'makdosh bo'ladi. Badiiy ijodning qiyinchiligi ham shundaki, yozuvchi his-tuyg'ularni o'zi qanoatlanadigan darajada ifodalay oladigan til birligini axtaradi. Ularni bir-birlariga chog'ishtiradi, qarama-qarshi qo'yadi, yonma-yon qo'llaydi, takror ishlatadi va hokazo. Zero, troplarning

¹ Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, 11-сон, 68 –бет.

o‘zi so‘zlarni asl ma’nolaridan ko‘ra ko‘proq ko‘chma ma’noda qo‘llashga intilishning natijasidir”¹.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik vositalar til birliklari ma’no taraqqiyotining namoyon bo‘lishi bo‘lib, ularning vujudga kelishi va shakllanishida ma’lum bir so‘zning uzual yoki okkazional ma’no doirasida yangidan yangi ma’no qirralari hisobga olinadi. Lingvopoetik vositalarning badiiy matn doirasida qo‘llanishi haqida fikr yuritganda ko‘proq ularning o‘zlari qo‘llangan matnda tutgan o‘rniga, shoir yoki yozuvchining maqsadi, qolaversa, ijodkorning individual uslubi nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har qanday badiiy matnda ijodkorning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat va jamiyatga, unda bo‘layotgan o‘zgarishlar, voqea-hodisalar, odamlarga subyektiv munosabati, tafakkur doirasi, e’tiqodi va dunyoqarashi kabilar lingvopoetik vositalar yordamida o‘zining badiiy ifodasini topadi.

Usmon Azim ijodida lingvopoetik vositalarning qo‘llanishini ko‘rib o‘tamiz.

Shoirning o‘xshatishlardan foydalanish mahorati.

Badiiy ijod, xususan, she’riy asarlar tilining poetik ta’sirchanligini oshirishda so‘z muhim ahamiyat kasb etadi. “So‘z orqali inson katta yutuqni qo‘lga kiritdi, bu vosita natijasida uning olami ikkilandi. So‘zga ega bo‘lgunga qadar faqat bevosita ko‘rinib turgan narsa bilan ish ko‘rgan mavjudot tilga ega bo‘lishi bilan faqat borliq elementlari bilangina emas, balki bevosita kuzatmagan narsa va hodisalar bilan ham ish ko‘ra oladigan bo‘ldi. So‘z insonga bevosita kuzatishda berilmagan narsa va hodisalar haqida ham axborot bera oladi. Shuning uchun ham hayvonot faqat bir olamga - sezgi orqali his qilish mumkin bo‘lgan predmetlar olamiga ega bo‘lsa, inson ikki olamga - sezgi orqali his qiladigan olam bilan birga, so‘z orqali ifodalanadigan obrazlar, munosabat, sifatlar dunyosiga ega bo‘ldi.

Shunga muvofiq, so‘zlarning borliq (denotativ) ma’nosi real va afsonaviy tushunchalar bo‘lishi ham mumkin. Qanday tushunchani ifodalashiga muvofiq so‘zlar ham borliqdagi inson ongidan tashqarida bo‘lgan narsa va hodisalarni

¹ Каримов С. Бадийий услуб ва тилнинг ифода-тасвир воситалари.-Самарқанд: СамДУ, 1994, 5-бет.

nomlovchi soʻzlar hamda inson tomonidan yaratilgan afsonaviy narsa va hodisalarning nomlarini ifodalovchi soʻzlar sifatida ajratiladi”.¹ Badiiy asar tilining emotsional-ekspressivligini oshiruvchi, obrazlilik hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi lingvopoetik vositalardan biri oʻxshatish hisoblanadi.

Badiiy matnlarda muallifning maʼlum bir voqea-hodisa, narsalarni kitobxon koʻz oʻngida aniq gavdalantirish uchun oʻxshatishdan foydalanishida aniq bir maqsad – kitobxonga badiiy-estetik taʼsir etish koʻzda tutiladi. Nutqiy vaziyat uchun mos keladigan oʻxshatish hosil qiluvchi til birligining toʻgʻri tanlanishi uni emotsional-ekspressiv vositaga aylantiradi. Muomala jarayonida qoʻllanilgan oʻxshatishlar vositasida soʻzlovchi mansub boʻlgan xalqning milliy-maʼnaviy xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi va dunyoqarashi, eʼtiqodi, anʼanalari va urf-odatlar bilan bogʻliq jihatlar ham aks etadi. Bundan tashqari tasvirlanayotgan shaxsning ruhiy holati, orzu-umidlari, oʻy-kechinmalarini berishda ham oʻxshatishlar muhim vosita hisoblanadi. Oʻxshatish deb «ikki narsa yoki voqea-hodisa oʻrtasidagi oʻxshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toʻlaroq, konkritroq, boʻrttiribroq ifodalash»²ga aytiladi. Koʻrinadiki, oʻxshatishlar eng qadimiy lingvopoetik tasviriy vositalardan biri sifatida yozma va ogʻzaki nutqimizni, ayniqsa, inson nozik his-tuygʻulari tasvirini berish vositasi boʻlgan badiiy matnlarning badiiy-estetik taʼsirchanligini oshirishda, muallif maqsadiga xizmat qiluvchi obrazlilikning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻxshatish etaloni oʻxshatish qurilmaning poetik qimmatini, muallif mahorati bilan hosil qilingan lingvopoetik vositaning estetik salmogʻini oshiradi. Tilimizda kundalik nutqimizda faol qoʻllanadigan bir qator oʻxshatishlar borki, ular anʼanaviy oʻxshatishlar hisoblanadi. Qoʻyday yuvosh, toshday qattiq, choʻchqaday semiz, tulkiday ayyor kabi oʻxshatishlar koʻp qoʻllanilgani bois taʼsirchanlik

¹ Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). – Тошкент, 2008, 176 бет.

² Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 239-бет.

xususiyatini yo‘qotgan deyish mumkin. Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, shoirning turli holat va hodisalar, narsalar mohiyatini anglashda takrorlanmas, o‘ziga xos o‘xshatishlar hosil qilganligining guvohi bo‘lamiz.

Shoir o‘zining “She’riyat” she’rida tulpor tasvirini berishda quyidagi o‘xshatishlarni qo‘llaydi: (Bundan keyingi misollarni Azim Usmon. Saylanma: She’rlar. -Toshkent: Sharq, 1995, asaridan faqat betini keltirib o‘tamiz.)

Ko‘zlari chaqmoq tulpor,
Tuyog‘i chaqmoq tulpor.
Suvliq lablarin yirtgan,
Yollari bayroq tulpor (12-bet).
Yoki
O‘jar tulpor, tong tulpor...
yoki
Olovli yalov tulpor kabilar

Keltirilgan misolda tulporning ko‘zlari va tuyog‘i chaqmoqqa, yollari bayroqqa o‘xshatilmoqda. Otning ko‘rinishi esa tong va olovli yalovga nisbat berilmoqda. Dastlabki o‘xshatishlarda, ya’ni chaqmoq so‘zining ot ko‘zlari va tuyog‘iga o‘xshatilishida ham shoirning mohirligi sezilib turadi. Shoir chaqmoq so‘zini ko‘zga nisbatan qo‘llaganda ot ko‘zining shakliy tomoni – chaqnab turishiga asoslangan bo‘lsa, tuyog‘ga nisbatan qo‘llaganda esa otning yugurikligini chaqmoqning yalt etib ko‘rinishidagi tezlikka qiyoslamoda. Agar she’rda qo‘llanilgan har bir o‘xshatish leksik yoki grammatik ko‘rsatkichlar bilan keltirilganda she’rdagi poetik ohangdorlik, ta’sirchanlik unchalik kuchli bo‘lmas edi.

Usmon Azim “Beshafqat ballada” she’rida to‘yma-to‘y yuruvchi raqqosa tasvirini berar ekan, unga o‘zining munosabatini ifodalashda o‘xshatishga murojaat qiladi va kitobxon ko‘z o‘ngida raqqosa obrazini gavdalantiradi:

Ishva bozori bu! **Stollar — rasta!**
Torning g‘ilofida pul dasta-dasta...

Raqqosa! Davrada ildam, ildam suz!..

Nega **nozing** — **olov**, **ko‘zlaring** — **naq muz!** (15-bet)

Shoir o‘zining “Maqsud Shayxzoda” she’rida boshqa biror ijodkor asarida uchramaydigan yangi o‘xshatishni yaratadi. O‘sha parchani keltiramiz:

Kurashlarda garchi yondim,

Shukur, vijdon beyamoq.

Chizavergin imonimni:

Imongoh — **yurak oppoq!** (28-bet)

Shoir bu yerda imongoh so‘zini qo‘llash bilan shoir qalbining Ka’ba singari pokiza ekanligiga ishora qilayotgan bo‘lsa, uni yurakka o‘xshatish bilan bu fikrini yanada kuchaytirishga erishgan. Bu o‘xshatishni Usmon Azim ijodiga xos individual o‘xshatish deyish mumkin. Bunday o‘xshatishlarni shoirning boshqa she’rlarida ham kuzatish mumkin.

Shoir “Samarqand bo‘ylab tungi sayr” she’rida kutilmagan bir o‘xshatish hosil qiladiki, bu she’rdagi poetik ta’sirchanlikni, obrazlilikni yuzaga keltirgan:

— Samarqand, ildizing qayerda?

— Kechangni chiroqlar parchalab tashlagan,

tun bilan nur o‘rtasida

uzun arvohlar —

minoralar ketib borar

kelajak sari,

ba’zan

oyga boqib

to‘xtab qolishar

(azon sasi urildimi quloqlarga?) (45-bet)

She’rida minoralarning arvohga o‘xshatilishi biror o‘quvchining xayoliga ham kelmaydi.

Shoir “Vatan haqida she’r” she’rida o‘xshatish vositasida xalqning turmush tarzi, turmush qiyinchiliklari tasvirini chizadi va ko‘z o‘ngimizda o‘sha davrni gavdalandiradi:

Opa, esingizda-ku,

(«O, hanuz og‘riydi dil»)

Ochlikdan qorni shishgan

Qirq beshinchi mash‘um yil.

Yetti yoshda edingiz

Sizga emasdi pinhon:

Urush — o‘lim, shodlik — xat,

Tiriklik-ku, aniq — non (47-bet).

Shu kunga qadar amalga oshirilgan qator ishlarda o‘xshatishlarning tarkibiy komponentlari, qo‘llanish uslubi, obraz yaratish funksiyalari haqida qator qimmatli fikrlar maydonga keldi. Biroq o‘xshatishlardagi xususiylikning umumiylikka tomon siljishi, ya’ni so‘zlovchining ichki maqsadi aks etgan xususiy yashirin mazmun ko‘rinishlari asarning umumiy g‘oyasiga nechog‘lik bog‘liqligi masalasi o‘zining yechimini topganicha yo‘q.

Tadqiqotda o‘xshatish qurilmalarining an’anaviy va individual turlari e’tirof etilgan holda o‘xshatishlar turli grammatik vositalar bilan yuzaga chiqishiga ko‘ra tasniflangan va lingvopoetik tahlilga tortilgan. “Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma’lumki,

badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi”¹.

Shoir o‘xshatish vositasida kutilmagan fikrlar ifodalaydiki, kitobxon beixtiyor tasvirlangan obyekt haqida o‘ylay boshlaydi, uning shakli va mohiyatiga shoir ko‘zi bilan nazar tashlaydi. Quyida shoir dasht obrazini matnga olib kiradi va uni junjikkan, egasiz itga o‘xshatish orqali kitobxonda dashtning ko‘rinishi haqida muayyan tasavvur uyg‘otishga erishadi:

Mana, tong chog‘ida ishga ketayapman.

Yurak, azobdasan — qanday dard ezar?

Junjikib, egasiz it kabi g‘amgin

Vokzal maydonida yolg‘iz dasht kezar... (“Dasht haqida ballada” (Erkin A‘zamovga bag‘ishladim) 55-bet)

Ma‘lumki, tilimizda o‘xshatish hosil qiluvchi leksik va grammatik vositalar bor. Leksik vositalarga kabi, singari, qadar, yanglig‘, bamisoli, bamisli, misoli, misli, monand, xuddi, naq, go‘yo, teng, o‘xshatmoq, eslatmoq, demoq, bo‘lmoq, bir, aynan, o‘zi, tus, ibrat, holatda, chu, andoqki va boshqalar kirs, grammatik vositalarga – day (-dek) -dak -(tak) -dag‘ (-dog‘) -dayin, -dan, -dir, -namo, -simon, -ona, -omuz, -li, -cha, (-larcha, -chalik, -chasiga) kabilar kiradi. Quyidagi she‘rda Usmon Azim leksik va grammatik vositalardan mohirona foydalanish bilan poetik tasvirni yuzaga keltirgan:

She‘rimga hassadek suyanib olib,

Seni tafting qolgan qo‘llarim bilan

Bo‘shliqlarni ko‘r kabi paypaslab, silab...

Tushun, Yer sharida osilib turibman!

Qancha yopishmayin hayotga, she‘rga,

Sen meni tashlama, quchog‘imda tur,

Hayotning bo‘yniga chirmashib ketsin,

Ikkala qo‘lim ham chirmovuc misol! (“Shubha”, 84-bet)

¹ Ёўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили. -Тошкент, 2007, 35- бет.

Badiiy nutqda shoir tomonidan hosil qilingan o'xshatishlar asarning badiiy-estetik qimmatini belgilab beradi. Bu haqida N.Mahmudov "Badiiy nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qaralganda, o'xshatishlarning musichadek beozor (odam), ayiqday qo'pol (yigit), toshday qattiq (narsa), muzday sovuq (suv), qorday oppoq (rang) kabi qo'llanishi an'anaga kirib qolgan, hammaga ma'lum bo'lgan turlaridan ko'ra nutq tuzuvchining, ijodkorning o'zi tomonidan yaratilgan, ya'ni xususiy-muallif o'xshatishlari ahamiyatliroqdir. To'g'ri, mazkur an'anaviy o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi uchun ma'lum darajada xizmat qiladi. Masalan, musichadek beozor odam birikmasi beozor odam birikmasiga nisbatan, ayiqday qo'pol yigit birikmasi qo'pol yigit birikmasiga nisbatan, toshday qattiq narsa birikmasi qattiq narsa birikmasiga nisbatan ifodaliroq, ekspressivroq ekanligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun odatdagi nutqning ifodaliligini ta'minlash uchun ulardan ham foydalanish lozim. Ammo nutqning, ayniqsa, badiiy nutqning ifodaliligini kuchaytirish uchun xususiy-muallif o'xshatishlari alohida ahamiyatga molikdir. Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamli tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak kuzatishlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqqoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi"¹ deb yozadi.

Usmon Azim o'xshatish hosil qilishda tasvirlanayotgan obyekt va o'xshatilgan narsa o'rtasidagi ichki bog'liqlikni saqlab qolishga intiladi. U quyidagi matnda kapitan tasvirini berar ekan, soch ta'rifini berishda uning dengizchi ekanligiga ham o'xshatish vositasida ishora qiladi, buni esa matnda o'xshatish zimmasiga yuklaydi:

Asli kasbi bo'lsa ham firoq
Chidolmadi kekxa kapitan,
Xotinini to'ldiray oppoq,
Sochlariga ko'mildi birdan (92-bet).

¹ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқининг маданияти.-Тошкент, 2009, 171-бет.

She'riyat shoir ruhining, ichki kechinmalarining lingvopoetik tasvirini beruvchi muhim vositadir. U har bir shoir ijodida qo'llanilsada, nimani tasvirlashga xizmat qilishi, nimaga o'xshatilayotganligi, unda qanday o'xshatish hosil qiluvchi vositalar ishtirok etayotganligiga ko'ra farqlanib turadi. Chunki "O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkreteroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir"¹. Usmon Azimning poetik mahorati shundaki, u bir she'riy parchaning o'zida bir emas, bir necha lingvopoetik vositalardan birdaniga foydalanadi, Ammo bu lingvopoetik vositalar bir vazifaga-shoir maqsadining ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi. Buni quyidagi parchada ham ko'ramiz:

Shoirlar erta tug'iladilar.

Bahorning to'ng'ichi — boychechakday.

Shoirlar armon bilan o'ladilar,

Bahorning to'ng'ichi — boychechakday

Yoki mana bu she'rda ham o'xshatishning go'zal namunasini ko'ramiz:

She'rimga hassadek suyanib olib,

Seni tafting qolgan qo'llarim bilan

Bo'shliqlarni ko'r kabi paypaslab, silab...

Tushun, Yer sharida osilib turibman!

Qancha yopishmayin hayotga, she'rga,

Sen meni tashlama, quchog'imda tur,

Hayotning bo'yniga chirmashib ketsin,

Ikkala qo'lim ham chirmovuuq misol! ("Shubha", 84-bet)

Yuqorida keltirilgan parchada o'xshatish hosil qiluvchi komponentlar ishtiroki haqida fikr yuritishda o'zbek tili ifoda-tasvir vositalari bo'yicha kuzatishlar olib borgan R. Qo'ng'urovning o'xshatish hosil qiluvchi to'rt komponent mavjud bo'lishi to'g'risidagi fikrlarini yodda tutish lozim. Olim bu

¹ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 243-бет.

komponentlarni qayd qilar ekan, shunday misollarni keltiradi: “shoirning qo‘shiqlaridan ilhomlangan o‘zbek yigitlari frontga borib, sherday jang qildilar (H. Olimjon. «O‘zbek xalqining adabiyoti», 1948, III).

Tog‘lardagi qip-qizil lola,

Bo‘lib go‘yo yoqut piyola

Buloqlardan uzatadi suv,

El ko‘zidan qochadi uyqu. (H. Olimjon, I).

Keltirilgan misollarning birinchisida o‘xshatilgan predmet yigitlar (1), o‘xshatiladigan predmet sher (2), jang o‘xshatish asosi (belgi) (3), -day esa o‘xshatish vositasi (4) hisoblanadi. Ikkinchi misolda o‘xshatilgan predmet (1) lola, o‘xshatiladigan predmet (2) piyola, asos (3) yoqut va o‘xshatish vositasi (4) go‘yo dir.

O‘xshatishni unga yaqin va aloqador boshqa tasviriy vositalardan (xususan, metafora, epitet, jonlantirish kabi) farqlashda mana shu a‘zolarining bo‘lishini hisobga olish katta ahamiyatga ega”¹.

Shoirlar erta tug‘iladilar.

Bahorning to‘ng‘ichi — boychechakday.

Shoirlar armon bilan o‘ladilar,

Bahorning to‘ng‘ichi — boychechakday (93-bet).

Yuqorida keltirilgan misolda o‘xshatilgan predmet (1) shoirlar, o‘xshatiladigan predmet (2) boychechak, asos (3) bahorning to‘ng‘ichi va o‘xshatish vositasi (4) day dir .

O‘xshatish hosil qiluvchi komponentlar ishtirokini quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin:

Shamollar quritdi ko‘zimdan yoshni,

Yillarning qatidan oxir otdi tong.

Asrlar shafaqday chulg‘adi boshni,

Miyamga o‘q kabi sanchildi-ku ong (“Bitik toshlar orzusi” 149-bet).

¹ Қўнғуров Р. Танланган асарлар. -Самарқанд: СамДУ, 2008, 337-бет.

Bu misolda o'xshatilgan predmet ong, o'xshatiladigan predmet o'q, asos sanchilmoq va o'xshatish vositasi kabidir. Yuqoridagi misolda esa o'xshatish hosil qilishda leksik va grammatik vositalar ishlatilgan. Ayniqsa, o'xshatish hosil qiluvchi –day grammatik vositasining takror qo'llanishi poetik tasvirni yanada kuchaytirgan.

O'xshatish hosil qilishda kutilmaganlik, kitobxonni hayratga solish Usmon Azim uslubiga xos xususiyatlardan biridir. U oddiygina tosh tasvirini berishda katta ma'nosini bildiruvchi so'zlardan oddiy tashbehlardan qochadi. Buning o'rniga kitobxon kutmagan yangi poetik tasvir yaratadi:

Menga bir tosh kerak — osmon kabi keng,

G'azab kabi og'ir, g'amday benavo...

Menga bir tosh topib berolmading, sen —

Toshlari tuproqqa aylangan dunyo (“Bitik toshlar orzusi” 149-bet).

Misolda o'xshatilgan predmet - tosh. Shoir shu tosh asosida matnga osmon, g'azab, g'am kabi so'zlarni olib kiradi va ularni o'xshatish ma'nosini kuchaytiruvchi vositalarga aylantiradi. O'xshatish hosil qiluvchi kabi va -day vositalari bu ma'noni yanada aniqlashtiradi.

Usmon Azimning metaforalardan foydalanish mahorati

Usmon Azim ijodida faol qo'llanuvchi lingvopoetik vositalardan biri metaforadir. Tilimizda metafora deyilganda narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishi tushuniladi. Ma'no ko'chishining bu turi adabiyotshunoslikda istiora deb yuritiladi.

Metaforaning paydo bo'lishi va lingvopoetik vosita sifatida amalda bo'lishiga e'tibor berilsa, bir qator jihatlar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Avvalo, metafora nutq jarayonida hosil bo'ladi. Uning shakllanishi to'g'ridan to'g'ri insonning fikrlash doirasi, tafakkuri qamrovi bilan bog'liq. Inson faoliyati juda ham serqirra bo'lib, u tabiat va jamiyatda bo'layotgan har bir o'zgarishni kuzatib boradi, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma'lum bir obrazlar

sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar o'zni kelganda ko'chma ma'no kasb etib nutqqa ko'chadi. Tilshunos M.Yo'ldoshev metafora va o'xshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini ko'rsatadi: “ 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larcha,-kabi, -singari, o'xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O'xshatish konstruktsiya. Bunda Karim – o'xshatish subyekti, tulki –o'xshatish etaloni, ayyor – o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu metafora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanayapti”¹. Usmon Azim she'riyatida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar orasida metaforalar muhim o'rin tutadi. Metaforalar ko'pchilik adabiyotlarda ta'kidlanganidek, o'z lingvopoetik xususiyatiga ko'ra doimiy va individual metaforalarga bo'linadi. Abdulla Qahhor ijodi tili bo'yicha tadqiqot olib borgan A.Hasanovning qayd etishicha, “ A.Qahhor individual metaforalar yaratishda ot, sifat, fe'l turkumiga oid leksemalardan unumli foydalangan. Jumladan, ot-metaforalardan o'z ideolektida reallashgan xususiy yashirin ma'nolarni implisit tarzda ifodalashda, ta'sirchan, obrazli ifodalar yaratishda; sifat-metaforalarning konnotativ ma'nolaridan qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, asar kompozitsiyasida, voqealar rivojida yechiluvchi mavhum konsituatsiyaga ishora qiluvchi tugun hosil qilishda va badiiy-g'oyaviylikka erishishda; fe'l-metaforalardan voqea-hodisaning

¹ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоетик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007, 78-бет.

intensivligini oshirishda, personajlar xarakter-xususiyatiga implisit ishora qilishda ta'sirchan omil sifatida foydalanib, hikoyalari tasviriyligini, badiiy-estetik quvvatini oshirgan"¹. Quyidagi misolda so'zlovchi o'z sevgilisiga bo'lgan eng nozik his-tuyg'ularini ifodalashda badiiy adabiyotdagi eng ko'p qo'llaniluvchi an'anaviy usullardan biri – metaforalardan foydalangan. So'zlovchi o'z sevgilisiga nomini aytib murojaat qilmay, unga to'g'ridan-to'g'ri "gulim" deb murojaat qiladi.

... Gulim, sovuq boqma, qo'rqaman,

Qo'rqaman boz bo'ladi paydo —

Olti qit'a, to'rt bahri ulkan,

Huvillagan dahshatli fazo... (73-bet)

Agar tasodif bo'lib,

Anov shofyorning qo'li,

Ozgina qaltirasa,

Olamda yo'qman, gulim... (76-bet), yoki

Men nechun yongan dilimni so'ndirolmayman, gulim,

Kul bo'lishga qismatimni ko'ndirolmayman, gulim.

Kim bilur otashda yongan kunlarimning qadrini,

Kecha qalblarni nurimga to'ldirolmayman, gulim (178-bet).

Gul metaforasi shoir ijodida faolligi bilan ajralib turadi. Bu metafora she'rdan she'rga ko'chib, poetik obrazlilik, ta'sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi:

— Shamollarga dardini

Kulib so'ylagan, ey, gul,

Mening sovuq bag'rimga

Qadam qo'ymagan, ey, gul —

Bir tosh bo'lib yoningda o'tganimda baxtliman! ("Qo'sh eshitgan o'lan",
179-bet)

¹ Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. - Тошкент, 2010, 9-10-бетлар.

Tilshunoslikda eng ko‘p murojaat qilinadigan lingvopoetik vositalardan biri metafora hisoblanadi. Yuqoridagi misoldan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga hos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko‘chiradi va shu tariqa nom ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda ishtirok etgan “gulim” so‘zining ma‘nosini metaforik ma‘no deyish mumkin, chunki mazkur misolda metafora gul va odamning tashqi jihatdan o‘xshashligi, go‘zalligi, beg‘uborligi asosida hosil bo‘lgan. Lekin shuni ham qayd etish kerakki, gul so‘zining yuqorida keltirilgan ma‘nosi adabiy tilimizda doimiy metaforaga aylanib ulgurmagan. Shunga ko‘ra yuqoridagi misolda keltirilgan gul metaforasi mazkur matndan tashqarida olib qaralganda nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan ma‘lum bir uslubiy qimmat kasb etmaydi. Ko‘rinadiki, metafora sifatida tanlangan til birligining bu hodisa mohiyatiga qanchalik mos kelishi, qanchalik yangi ekanligi, poetik ta‘sirchanligi matnning mazmunan boyligi, ifodali bo‘lishini ta‘minlaydi. Barcha so‘z san‘atkorlari, ijodkorlar qatori Usmon Azim ham o‘z she‘rlarida tilimizdagi poetik ta‘sirchan, obrazli so‘zlarni metaforik ma‘noda qo‘llash orqali she‘riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go‘zal bo‘lishiga muvaffaq bo‘lgan. Quyidagi misollarda buni ko‘rish mumkin:

Qancha shirin damdan kechmog‘im mumkin,

Faqat sen o‘ynagin, quvongin, kulgin.

Sen mening taqdirim, oxir azalim,

Sen mening bahorim, oyim, g‘azalim (79-bet).

Metaforalar, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, shoirning o‘z fikrlarini kitobxonga ta‘sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she‘riy asarlarning hamma ko‘rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo‘ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga bog‘liq holda she‘rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab lisoniy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-tasvir vositalari, badiiy matnning o‘ziga xosligini ta‘minlovchi, bo‘yoqdorlikni

yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda lingvopoetik vosita o‘rinli qo‘llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo‘yoqlarda o‘quvchi yoki tinglovchi ko‘z o‘ngida aks etadi. Badiiy matnda qo‘llanilgan metaforalar o‘z ta’sirchanlik xususiyati bilan o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari metaforalar kishiga o‘z fikrlarini tilda mavjud bo‘lgan vositalar yordamida uzundan-uzun jumlar orqali ifodalashdan qutqaradi. Metaforalar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o‘z ifodasini topadi.

Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan metaforalar birgina shoirning ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlari pardozi sifatida ko‘rinmay, shoirning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularining obrazlilik bilan yaxlit holda o‘quvchiga yetkaziladi.

Ma’lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan muomalaga kiritilgan ma’noning tabiat va jamiyatdagi ma’lum bir o‘xshashlik asosida ko‘chishi metaforaning asosiy, muhim belgilaridan hisoblanadi. Og‘zaki va yozma nutqda, ayniqsa, inson ruhiyati, kechinmalari tasviriga asoslangan poetik matnlarda emotsional - ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo‘lgan metaforalar obrazlilikka asoslanadi. Quyidagi misolga e’tibor qilaylik:

Qancha shirin damdan kechmog‘im mumkin,

Faqat sen o‘ynagin, quvongin, kulgin.

Sen mening **taqdirim, oxir azalim,**

Sen mening **bahorim, oyim, g‘azalim** (79-bet).

Bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlik asosida metaforik ma’no hosil qilish badiiy matnlarda qo‘llanuvchi lingvopoetik vositalarga xos xususiyat hisoblanadi. Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan metaforalarda shoirning salbiy yo ijobiy munosabatda bo‘lishi shoirning she’rda kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday birliklar vositasida unga munosabat bildirishiga bog‘liq

bo'ladi. Shoir quyidagi she'rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metaforani qo'llagan:

Endi mendan ketdi ixtiyor!

Yuragimni qo'yib kaftimga

Shivirlayman besabr, takror:

Qiblanamom, yo'l ko'rsat menga! (82-bet)

Mana bu parchada esa u yorga nisbatan to'g'ridan to'g'ri murojaat qilmaydi, balki unga nisbatan kutilmagan metafora qo'llaydi:

Xavotir ichinda deding: «Men ketdim...»

To'xtading. Xo'rsinding. Jo'nading shitob.

Kuzgi chorbog' aro yo'qolding, yitding,

Atlas liboslarga belangan sarob ("So'nggi uchrashuv", 86-bet).

Metaforalarning o'ziga xos xususiyatlari badiiy matn doirasida qaraluvchi she'riy asarlarda bo'rtib turadi. Shuning uchun Usmon Azim ijodida qo'llanilgan metaforalarning o'ziga xos jihatlarini aniqlashda ularning shoir she'riyatida tutgan o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim. She'riy matnlarda Usmon Azim boshqa lingvopoetik vositalar qatori metaforalarni qanday maqsadda qo'llashiga qarab bu vositaning bajaradigan vazifasi va badiiy estetik qimmatini belgilash mumkin. Usmon Azim o'z she'riyatida metaforani qo'llashda shu vositaning estetik vazifasini ta'minlashga harakat qiladi. Uning she'rlarida metafora o'zi bog'liq bo'lgan matnda yetakchilik qiladi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Usmon Azim ijodida tilning boshqa ifoda-tasvir vositalari qatori metaforaning o'ziga xos estetik vazifasi boshqa matnlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'ladi. Usmon Azim tomonidan tanlangan va she'riy asarlar tilida mahorat bilan qo'llanilgan metafora she'rlarda aniqlik va ta'sirchanlik, jozibadorlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini ko'rsatadi. Ayniqsa, shoir tomonidan sevimli yorga nisbatan qo'llanilgan metaforalar shoir she'riyati bilan tanishgan kitobxonni turli ichki kechinmalarga, ruhiy holatlarga soladi, o'quvchini shoirning xayolot olamiga tomon yetaklaydi, uning estetik tafakkuri qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi.

Shoir she'rlarida qo'llanilgan lingvopoetik vositalar bilan tanishgan kitobxon metaforalarni anglash jarayonida ulardan ta'sirlanadi hamda Usmon Azim she'riy asarlari quvvatini his etadi. Shoirning o'ziga xos uslubi shundan dalolat beradiki, u o'z qahramoni ichki kechinmalarini anglagan, uning g'am-qayg'ulariga sherik bo'lgan holda hayotiy voqea-hodisalarga obrazlilik nuqtai nazaridan yondashadi va shunga xos metaforalarni tanlaydi.

Quyida u yoriga nisbatan "she'rim" metaforasini qo'llaydi:

Ammo, sen kelmassan, yo'qotgan **she'rim**,

Hamon turibdirsan ostonada tik.

Kutasan: «Qaytgin», deb aytadi ering,

Yana ochiladi yopilgan eshik ("So'nggi uchrashuv", 87-bet).

Boshqa bir o'rinda esa unga "Panohim" deb murojaat qiladi:

Panohim, uchyapmiz yulduzlar aro,

Yulduzlar ichida eng go'zali — siz! ("Sevgi haqida umidbaxsh ballada" 113-bet)

Tilimiz so'z va iboralarga, turli xil vositalarga qay darajada boy bo'lmasin, kishilar fikrlarini har doim ham ko'zlanganidek ifodalay olmaydilar. Tilimiz lug'at tarkibidagi ma'lumot, xabar yetkazishga xizmat qiluvchi vositalar, leksik birliklar kishiga o'z subyektiv-emotsional munosabatini o'z istagi darajasida aniq va ta'sirchan, yorqin, obrazli qilib ifodalashga, baholashga har doim ham imkon bermaydi. Bu esa ijodkorga tilimiz lug'at tarkibidan joy olgan o'z kommunikativ maqsadiga mos keluvchi so'z va iboralarni metaforik qo'llashiga zamin hozirlaydi. Mana uning bir she'rda ayolga nisbatan qo'llagan metaforalari:

Behisht gulshanlari topdilar zavol,

Qiyomat gullarni ayladi g'orat.

Sen, ey, **farishtalar hamdami** — ayol,

Do'zaxda qolganing bo'lsin muborak!

Do'stlaring bor edi — payg'ambar, rasul —

Har biri o'zicha yaratgan olam.

Ey, **podshoh qismatga sadoqatli qul,**
Qutlug' bo'lsin yangi shayton do'stlar ham.

Uni-ku gapirmay... O'tdi u — ertak,
O'tli hislarini poyingga yozdi.

Sen, ey, **olovlarda muzlagan erka,**
Muzda uyg'onishning lazzati sozmi? (144-bet)

Mana bu she'rda esa lingvopoetik vositalarning, ya'ni metafora (oppoq qo'lcha) va jonlantirishning o'zaro uyg'unlik hosil qilganligi seziladi:

Men ko'cha kezaman. Yog'a boshlar qor,

Oppoq qo'lchalarni yelkamga tashlab.

Sokin shivirlaydi: «Nima gaping bor?»—

Qadamim tovshidan uyg'ongan uylar. (117-bet)

Xulosa qilish mumkinki, lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan metaforalar Usmon Azim she'riyatida faol qo'llanilib, she'riy asarlar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi, hamda shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga ijodiy yondashuviga bog'liq holda hosil bo'ladi. Metaforalar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o'ziga xos individual uslubini belgilab beradi. Ular she'riy matnlarda kutilmagan obrazlilik hosil qiladi, Usmon Azimga fikr ifodalashda ancha qulaylik yaratadi.

Usmon Azim ijodida metonimiyalarning qo'llanishi.

Metonimiya—grekcha “metopumia” so'zidan olingan bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. “Metonimiya hodisasi ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo bu yerda asosan biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki

xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi"¹. Metonimiya ham nom ko'chishiga asoslanishiga ko'ra metaforaga o'xshab ketadi. Usmon Azim ijodidan olingan "Suflyor monologi" she'ridagi quyidagi misollar metonimiyalarning lingvopoetik imkoniyatlari shoir asarlarida yorqin namoyon bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi:

Sen buyuk aktyorsan. Besarhad. Ulkan.

Jumla jahonni zabt etmog'ing mumkin.

Zal kuldi, yig'ladi mahoratingdan,

Men ham burchagimda yig'ladim, kuldim. ..

Mana, sahna uzra bir moviy falak.

Bir dala. Bitta sen. Bir navnihol qiz.

Unga «sevaman», deb aytishing kerak,

So'ng tomosha tugar. **Zal cho'kadi tiz...** ("Suflyor monologi", 68-bet)

«Sevaman» desang-chi, «sevaman» degin!...

Zal ham jo'r bo'ladi:

«Sevaman de, ayt!»

Sendan so'rayapti — men aniq sezdim —

Bittagina so'zni zal mana shu payt. ("Suflyor monologi", 69-bet)

Shoirning "Ilk she'rning yozilishi haqida ballada" she'rida qo'llanilgan metonimiya insonning tafakkuri, xayolotida mavjud bo'lgan o'ziga xos olamni, undagi obrazlarni qamrab oladi:

Osmon bilan o'ynashmang — qo'rqing,

Ko'z yosh to'kmang, ishqdan urmang lof.

Hali-zamon qudratli qo'shin —

Qo'zg'oladi butun Ko'hi Qof... ("Ilk she'rning yozilishi haqida ballada", 152-bet)

¹ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 241-бет.

Shoir ijodida bu kabi boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metonimiyalarni ko‘plab uchratish mumkin. Ular o‘zlarining poetik ta’sirchanligi, o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir etib turli his-tuyg‘ularni uyg‘ota olishi bilan boshqa lingvopoetik vositalardan farqlanib turadi.

Sinekdoxa va uning shoir ijodida tutgan o‘rni.

Usmon Azim ijodida faol qo‘llanuvchi lingvopoetik vositalardan yana biri sinekdoxadir. O‘zbek tilshunosligida uslubiyat bo‘yicha yaratilgan ishlarda sinekdoxaga quyidagicha ta’rif berilgan: “**Sinekdoxa** grekcha –synekdoche so‘zidan olingan. Bu ham tropning bir turi bo‘lib, predmetlarga nisbatan qo‘llanadigan son bilan bog‘langandir, ya’ni predmetlarning son jihatdan birining (qismi, to‘la) ma’nosi ikkinchisiga ko‘chiriladi. Butun o‘rnida qism (yohud, aksincha) yoki birlik o‘rnida ko‘plik (yoki aksincha) qo‘llanilishini ham bunga misol sifatida ko‘rsatish mumkin”¹. Sinekdoxalar mohiyatan bir xil hodisani ifodalasalarda, ilmiy adabiyotlarda u metonimiyaning bir ko‘rinishi, bir-biriga yaqin hodisalar sifatida talqin qilinadi. Usmon Azim quyidagi parchada sinekdoxaning qism orqali butun ifodalangan ko‘rinishini qo‘llagan:

Nahot har zukko aql,
Sheryurak, temirbilak,
Fitnalarning zarbidan
Yo‘qlikka ketsa qulab? (Mo‘min Mirzoning so‘nggi qo‘shig‘i, 24-bet)
Quyidagi sinekdoxa hodisasi “ko‘z” leksemasi vositasida hosil qilingan:
Insonni tushunish kerak...
Sizni zor etib beparvo boquvchi,
Tushlaringizga, kiradigan jodugar ko‘zlar
Balki mag‘rurlikdan,
Balki hayodan,
Sizga yulduzlardan olisroq erur (32-bet).

¹ Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 2008, 322-бет.

Keltirilgan misolda ishtirok etgan “ko‘z” leksemasi orqali inson tushunilmoqda. Bu so‘zdan faqatgina ko‘z emas, balki inson nazarda tutilayotganligi sezilib turadi. Sinekdoxaning qahramonlar hatti-harakatini ko‘rsatishda muhim vosita ekanligi quyidagi parchada ham ko‘zga tashlanadi:

«U sevgisin sotdi», qichqirar

Bir ayolning qasoskor ko‘zi.

Tiz cho‘kaman: «Singlim, muqarrar

Buyuk nomzod o‘limga o‘zim!» (“Tush”, 13-bet)

Umuman olganda, sinekdoxalar Usmon Azim ijodida muhim o‘rin egallaydi. “Misollar tahlili sinekdoxaning katta umumlashtiruvchilik imkoniyati borligini ko‘rsatadi va unda badiiylik hamma vaqt ham ko‘zga tashlanavermaydi. Garchand umumlashtirish qisqalikning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, badiiy adabiyot tili uchun nihoyatda zarur sanalsa-da, bu xususiyat uning boshqa funksional uslublarda ham bemalol ishlatilaverishiga to‘siqlik qilmaydi. Bundan tashqari u takrordan qochishga, yaqinlik ma’nosini ifodalashga, ayrim ma’nolarni ta’kidlashga xizmat qilishi mumkin”¹.

Shoir ijodida jonlantirishlar uslubiy vosita sifatida.

Usmon Azim ijodini lingvopoetik vositalarsiz, xususan, jonlantirishlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Jonlantirish metaforaning maxsus bir turi sifatida og‘zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham, o‘xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib keladi. Bu shunday priyomki, unda kishilarning harakatlari, his-tuyg‘ular; so‘zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko‘chiriladi. Boshqacha qilib aytganda. jonsiz predmetlarni insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so‘zlaydigan qilib tasvirlash **jonlantirish** deyiladi”².

Jonlantirish shoirga fikr ifodalashda qulaylik tug‘diradi, she’rlardagi poetik ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Quyida shoir jonlantirish vositasida kutilmagan tasvir yaratadi:

¹ Каримов С.А. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994, 30-бет.

² Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 2008, 378-бет.

Miltiq noxos otadi,
Aks-sado qilar nido.

Birdan

Bejon qotadi

Ko'ksi teshilgan havo (44-bet).

She'rda kitobxon kutmagan holat, ya'ni aks-sadoning tilga kirishi, havoning xuddi insonlar kabi yaralanishi o'quvchini hayratga soladi, o'z ta'siriga oladi. Bu holat shoirning o'z ijodiga nisbatan jonlantirishni qo'llashida, o'z she'ri satrlarini jonli narsadek tasvirlashida ham ko'rinadi:

Balki bir tirik satrim

Cho'kkan ko'ngling ko'tarib,

Uchgan g'amxona yerdan

Orzu osmoni sari. (155-bet)

Jonlantirishning asosida insonga xos xususiyatlarning jonsiz narsalarga ko'chirilishi yotadi. Masalan, insonga xos "angraymoq" so'zi biror narsadan, kutilmagan holatdan ajablanish, hayratlanish ma'nolarini ifodalaydi. Usmon Azim mana shu so'zni jonsiz predmet – eshikka nisbatan qo'llab jonlantirishning o'ziga xos ko'rinishini yuzaga keltirgan:

Meni asir oldilar...

Bo'g'zimda erk qo'shig'i!

Angrayib ochiladi

Hibsxona eshigi ("Mo'min Mirzoning so'nggi qo'shig'i", 24-bet).

Jonlantirishning eng yaxshi namunasini Usmon Azimning Xurshid Davronga bag'ishlab yozgan quyidagi she'rida uchratamiz:

— Samarqand, ildizing qayerda?

— Kechangni chiroqlar parchalab tashlagan,

tun bilan nur o'rtasida

uzun arvohlar —

minoralar ketib borar

kelajak sari,

ba'zan

oyga boqib

to'xtab qolishar

(azon sasi urildimi quloqlarga?)

Zinalaringdan

choponiga o'ralgan

so'fi emas,

men o'rlab borayapman

falak

peshtoqiga

va yerga boqib notinch shivirlayman:

— Samarqand, ildizing qayerda? ("Samarqand bo'ylab tungi sayr", 45-bet)

She'rdagi tungi Samarqandning go'zal manzarasi o'z aksini topgan. Unda birgina tundagi minoralarning ko'rinishigina emas, balki o'tmish, bugun va kelajak o'rtasidagi bog'liqlik o'z badiiy tasvirini olgan. Dunyoda hamma narsa o'tkinchi, inson umri juda qisqa ekanligi, inson tomonidan ijod qilingan san'at asarlari boqiy ekanligi, ularning tabiat va jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlarga guvoh ekanligi she'rning asosiy g'oyasini tashkil qiladi. Bu g'oya esa so'zsiz jonlantirish vositasida yuzaga chiqqan.

Jonlantirishlar lirik qahramon ruhiyatini ochib berishning eng qulay vositalaridan biridir. Insoniy munosabatlar so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati qanday ekanligiga qarab ijobiy yoki salbiy tushunchalarni ifodalaydi. Usmon Azim o'z she'rlarida buni to'g'ridan to'g'ri aks ettirmaydi, balki ana shu tushunchalar doirasida qaraluvchi mavhum otlarni jonlantiradi. Shoir ularni harakatlantirish, so'zlatish orqali ularga o'z munosabatini, bahosini ifoda etadi. Xiyonat, vijdon tushunchalarining jonlantirilishi ham buni isbotlaydi:

Vijdon yonida,

xiyonat turibdi

sogʻligʻi xoʻb soz

Hatto nutq aytmoqchi.

shoir shaniga.

tiliga yogʻ surtib,

soʻziga pardoz (“Oybekning uy muzeyida oʻqilgan sheʼr”, 123-bet).

Jonlantirish oʻz tabiatiga koʻra turli-tuman koʻrinishda boʻlishi mumkin. Uning nimaga nisbatan qoʻllanishi ijodkorning badiiy mahoratiga, tilimizning yashirin, nozik maʼno ifodalash imkoniyatlaridan qay darajada xabardorligiga bogʻliq. Quyidagi parchada “mudramoq” soʻzi uyga nisbatan qoʻllanilib, osoyishtalik, tinchlik maʼnolari yuzaga kelgan:

Koʻcha sovuq edi. Hashamdor uyim

Mudrardi pechkaning iliq taftida.

Men stol ustiga dasta pul qoʻyib,

Salmoqlab koʻrardim uni kaftimda (56-bet).

Usmon Azim ijodida qoʻllanilgan jonlantirishlarda koʻpchilik hollarda aniq predmetlar emas, balki mavhum tushunchani bildiruvchi otlar xuddi insonlardek harakat qiladi, soʻzlaydi, fikrlaydi. Masalan, mavhum ot hisoblangan saraton quyidagicha jonlantirilgan:

Daryoning qum qirgʻoqlarida

Yap-yalangʻoch yotar saraton...

Qumli sohil ketguncha uyqu...

Qilt etmadi saraton tani.

Koʻzni yumib yotaverdi u.

U erindi ismin aytgani. ..

Tush. Saraton chopadi ketmon.

Yuz-koʻzidan oqib borar ter.

Saratonim, jonim saraton,

Sen ismingni menga aytib ber (“Yoz”, 103-bet).

Jonlantirishni hosil qilishda Usmon Azim faqatgina jonsiz predmetlarni insonlardek harakatlantirish bilan cheklanmaydi, balki ulardan lirik qahramon ruhiyati, ichki kechinmalarini ochib berishda yordamchi vosita sifatida foydalangan. Buni quyidagi parchada ishtirok etgan jonlantirishlarning shoir maqsadiga xizmat qilganligini ham dalillaydi:

Qo'ng'iroq chalmagin. Ochmaydi hech kim,

Eshik na jilmayar, na u so'z bilsin.

Azizlik taxtidan tushgan, azizim,

Paltongni sukunat qoziqqa ilsin.

O't jonidan o'tar — bo'zlaydi choynak,

Deraza yig'laydi — tashqari tuman.

Teleekranining og'zini poylab,

Endi qahva ichgin yolg'izlik bilan (111-bet).

Parchada eshikning jonlantirilishi lirik qahramonning holatiga, iztirob chekishiga loqaydlik ma'nosini ifodalasa, sukunatning jonlantirilishi mehribonlikni anglatadi. Choynakning qaynagandagi ovoz chiqarishi insonning bo'zlashini, deraza oynasini yomg'irning yuvishi yoki oyna terlaganda unda tomchilarning paydo bo'lishi insonning yig'lashini eslatadi. Bu holatlarning hammasi umumlashib, jonlantirishning yuqoridagi ko'rinishlarini yuzaga keltirgan. Bu tarzda jonlantirish hosil qilishni faqatgina Usmon Azim uslubiga xos xususiyat deyish mumkin.

Shoir ba'zan jonlantirishning tabiiy chiqishini ta'minlash maqsadida dialogik nutqdan ham foydalanadi. Bunda mavhum tushunchalar va jonsiz predmetlar xuddi insonlardek so'zlaydilar, turli holatlarga tushadilar:

Uyning karaxt qotgan tili uyg'onar:

— Sen yetib keldingmi, quvg'indi Mehr?...

Behol suyanadi Nafrat javonga...

Jimlik. To'rt devor jim. Shift jim. Pol ham jim.

Mehr ikkilanib chiqar balkonga,

Kutadi... «Qolgin», deb aytmaydi hech kim (108-bet).

Usmon Azim ijodida bu kabi jonlantirishlarni ko‘plab uchratish mumkin. Jonlantirishlar har bir holatda ham shoir maqsadining amalga oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Usmon Azim ijodida antiteza.

Usmon Azim ijodida boshqa lingvopoetik vositalar qatori antitezadan ham foydalanilgan. Antiteza grekcha so‘z bo‘lib, qarama-qarshi qo‘yish degan ma‘noni bildiradi. Tilshunos R.Qo‘ng‘urov antiteza haqida fikr yuritarkan, “Antiteza poetik sintaksisning bir ko‘rinishi hisoblanadi, u nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet yoki hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir.” deb yozadi. Olimning fikricha, “Antiteza orqali ifodalangan ma‘noni tushunishda bir-biriga keskin qarama-qarshi hodisalarga nisbatan bizning reaksiyamizning ham ahamiyati bor. Masalan, issiq-sovuq, baland-past, ulug‘ va pastkash, jasur va qo‘rqoq, saxiy va xasis, haqiqat va yolg‘on, tun va kun, yorug‘ va qorong‘i kabi antonimik so‘zlar har biri o‘ziga xos reaksiya uyg‘otadi. Ma‘lum hodisa yoki hodisalar tasvirlanayotganda ularni ana shu kabi antonim so‘zlar vositasida birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo‘yib qiyoslanadi va shoir ularga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi yoki bir hodisani turli tomondan tasvirlash orqali o‘quvchida unga ijobiy yoki salbiy munosabat uyg‘otadi”¹.

Quyidagi parchada qarshilantirish siz va men olmoshlari vositasida hosil qilingan. Bunda muallif o‘zi va nutq qaratilgan shaxsni munosabatlarning ikki qutbi sifatida tasvirlamoqda. Ayniqsa, tinglovchining qimmatbaho deb, o‘zini esa arzon deb baholashi she’rda ifodalangan mantiqiy ziddlikni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan;

Siz — qimmatbahosiz,

Men — arzon, arzon.

¹ Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарқанд: СамДУ, 2008, 386-бет.

Sizga balki faqat yuragim arzir.

Sizdan so‘ramayman haqiga osmon,

Faqat osmon kabi yuksaling, axir! (139-bet)

She’rdagi fikrlar o‘zaro zidlik asosiga qurilgan bo‘lsa-da, unda muallifning nutq qaratilgan shaxsga bo‘lgan ijobiy munosabati yashirin tarzda aks etgan. She’rda muallifning o‘zini past tutishi va tinglovchini ulug‘lashi ham shundan dalolat berib turibdi. Quyidagi she’rda tun va kun tushunchalari o‘zaro zidlikda tasvirlanadi. Kun tushunchasida shoirning ijobiy, tun tushunchasida esa salbiy deb hisoblagan tasavvurlari mujassamlashgan:

Kechalari yurak sanchadi,

Tutunlarga to‘ladi boshim.

Rutubatli tunni yanchgani,

Ruhimda bir porla, quyoshim.

Kunduzlarim manim — lahzalik.

Tunim — uzun. Uzun. Beadad (219-bet).

Shoirning “Rivojlanish” she’rida tabiat bilan bog‘liq tushunchalar o‘zaro zid munosabatda tasvirlanadi. She’rda poetik tasvir tong va shom tushunchalarini o‘zaro zid qo‘yib tasvirlash orqali amalga oshirilgan:

Tunni tong o‘ldirdi,

Tongni shom o‘ldirdi.

Shomni bo‘g‘di tun...

Nima uchun?

Nima uchun,

Shomning qo‘li qon...

Tongning qo‘li qon...

Bor-yo‘g‘i bir qadam qo‘ydingmi,

Beshafqat zamon? (143-bet)

Tilimizda so‘zlarning o‘zaro lug‘aviy jihatdan anglatgan ma’nosiga asoslanib yoz va qish faslini zidlik munosabatiga kiritish poetik matnlarda ko‘p

kuzatiladi. Usmon Azim esa bahor va kuz faslini antiteza sifatida qo'llab tasvirning o'ziga xos ko'rinishini yuzaga keltirgan:

Bahorda ko'karib, kuzda sarg'ayib,
Sukunatu qorga o'ranib qishda,
G'o'ra she'rlarimga boqdi mung'ayib...

Xullas, sodiq bo'ldi har ezgu ishda! ("Dasht haqida ballada", (Erkin A'zamovga bag'ishladim) 54-bet)

She'rda tasvirlangan bahorni hayotning, ijodning boshlanishi, kuzni esa buning aksi sifatida tushunish mumkin. So'zlarning o'zaro zidlik hosil qilishi bevosita matn bilan bog'liq.

Lingvopoetik takror personaj ruhiyatini ifodalash vositasi sifatida.

Usmon Azim she'rlari shoirning ko'p yillik mehnati, xalq hayotini, insoniy munosabatlar, tabiatning betakror manzaralarini kuzatishi natijasidir. Filologiya ilmiga oid manbalarda badiiy takrorning alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans, konsonans, monorim, pleonazm, taftologiya, naqorat kabi turli xil ko'rinishlari mavjudligi qayd etiladi. Tilshunos R.Qo'ng'urovning ko'rsatishicha, "Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttiribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida ko'proq she'riy asarlarda, ba'zan prozada ham ayrim tovush yoki tovushlar birikmasi, so'z yoki so'zlar birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi"¹.

Usmon Azim o'z she'riyati bilan badiiy adabiyotda munosib o'rniga ega bo'lgan, lingvopoetik vositalardan, jumladan, takrordan o'ziga xos tarzda foydalana olgan shoirlardan hisoblanadi. Uning she'rlarida tabiatning turli fasllariga xos jonli tasvirlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar chigalligi, turmush tashvishlari va ziddiyatlaridan ozor chekuvchi inson obrazi doimo birinchi o'rinda turadi. Quyidagi parchada tabiat hodisasi bo'lgan yomg'ir yog'ishi va inson ruhiy holati takror vositasida yaqqol o'z aksini topgan:

¹ Қўнғуров Р. Танланган асарлар. – Самарканд: СамДУ, 2008, 397-бет.

Ohista-ohista yog'adi yomg'ir,
Ohista-ohista qo'zg'alar shamol.
Ohista-ohista to'kar yumshoq nur
Bulutlar bag'ridan ko'ringan hilol.
Ohista-ohista yig'laydi bir qiz,
Kaptar patidan ham mayin dardlari... (40-bet)

Usmon Azim she'rlarida shoir obrazli tafakkurining nihoyatda keng qamrovli ekanligi, kutilmagan holatlar, hamma birday idrok qilavermaydigan, faqat o'tkir aql va mushohada egasigina ko'ra oladigan eng nozik lavhalar o'z badiiy qiyofasiga ega bo'ladi. Shoir boshqalar nazarida oddiy tuyulgan holatlardan badiiy ko'rinishlarni o'z nozik didi bilan ilg'ay oladi va ularni turli lingvopoetik vositalar orqali misralarga soladi. Ma'lumki, alohida olingan shoir yoki yozuvchilar badiiy asarlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishda poetik nutqning fikr ifodalashdagi imkoniyatlari shu asar misolida o'rganib chiqiladi. Usmon Azim ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalanib, xalq tilida qo'llanilib kelayotgan ma'lum darajada milliylik ufurib turgan so'z va iboralarning ma'nosini matnga bog'liq holda kengaytirishga harakat qiladi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarni, asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini o'zida aks ettirgan ona tilimiz lug'at boyligini shoirona tafakkur bilan ilg'ay olgan shoir o'zining har bir she'rida so'z tanlashda ana shu mezonlarga tayanadi, tanlangan birliklarni o'z tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Quyidagi parchada shoir bir so'zni – Ona so'zini takror qo'llash bilan inson turmushi tarzi, farzandning ona oldidagi burchi, unga munosabati kabi jiddiy masalalarga kitobxon e'tiborini qaratadi:

Ona, kelganingizda
Ko'ylak olib bermadim...
Pulim yo'q edi, **ona.**

Ona, kelganingizda,
Ochilib gaplashmadim...
Vaqtim yo'q edi, **ona.**

Ona, kelganingizda
Kulib-kulib yurmadim...
Baxtim yo‘q edi, **ona.**

Ona, kelganingizda
Yig‘lamadim o‘ksinib...
Haqqim yo‘q edi, **ona** (150-bet).

Shoirning “Sarbadorlar qo‘shig‘i” she’rida takrorning yana bir ko‘rinishi uchraydi. Bu ko‘rinishda she’r beshlik misralardan tashkil topib, to‘rtinchi misra beshinchi misrada aynan takrorlanadi:

Bizning dilimiz — yorda.

Bizning qo‘limiz — korda,

Koru yordan ayrilar —

Torting boshimiz dorga!

Torting boshimiz dorga

Dilga bog‘liq so‘zimiz,

Yor yo‘lida ko‘zimiz.

Yo‘lu dildan ayrilar,

Qarang, dorda o‘zimiz,

Qarang, dorda o‘zimiz,

«Qayt» dedingiz, «qalb» dedik,

«Ayt» dedingiz, «haq» dedik.

Boshimiz dorda turib

«Jon» demadik, «xalq» dedik.

«Jon» demadik, «xalq» dedik (“Sarbadorlar qo‘shig‘i”, 176-bet).

Ko‘rinadiki, shoir bir misrani qayta takrorlash bilan ta’kid ma’nosini yuzaga keltirgan. Bu ham shoirning lingvopoetik vositalardan foydalanishda mahorat egasi ekanligini ko‘rsatadi.

Shoir tomonidan favqulodda hosil qilingan noyob va obrazli ifodalar kitobxonni o‘ziga jalb etadi, tanlangan ifodalarda baxshiyona ruh, badiiy

tafakkur, asosli va mantiqiy xulosalar aks etadi. Shuni xarakterlik, Usmon Azim o'zbek tilining boy, go'zal, ifoda imkoniyatlari cheksiz ekanligini o'z she'riyati orqali to'la namoyon eta olgan. Quyidagi tabiat tasviri takrorini turlicha tarzda keltirish orqali hosil qilingan:

Bir kuni men senga beraman savol:

— Yodingdami, o'sha tinchgina shahar,

Qator-qator terak, qator-qator tol?

Tol? Terak? Qayerda?— O'yga tolasan...

Men seni qiynamayman:— Eslagin bir bor —

Ko'rmagansan, ammo eslab qolasan,

Terak qator-qator. Tol qator-qator...(116-bet)

Quyidagi misolda “ Bir qadam...” so'zining takrorlanishi shoirga yangidan yangi ma'nolarni kashf qilishiga, shu so'zga yangi vazifa yuklashiga imkoniyat yaratganligi seziladi:

Endi ketaman.

Yomg'irli ko'chalarda

Mashinalar sachratib o'tar

Chiroqlar suratini.

Bir qadam...

Xayrlashuv oldidan ko'zlarni yashir.

Lablarni tishla — Titramasin ular.

Bir qadam... (178-bet)

Yuqorida bir qadam so'zlari ikki marotaba takrorlangan. Birinchi marta u tabiat bilan bog'liq holatlarni aks ettirsa, keyingi qo'llanishda ikki sevishganning xayrlashuv holati bilan bog'liq lahzalar o'z poetik ifodasiga ega bo'lgan:

Ko'zimizdagi yoshlarni nima qilamiz,

O'tgan umrni?..

Bir qadam... (178-bet)

Tadqiqotchining shoir asarlari tahlili jarayonida Usmon Azimning til mahorati va uslubiga ham alohida e'tibor qaratishi, asar tiliga xos lingvopoetik hodisalarni, leksik xususiyatlarni hozirgi o'zbek adabiy til me'yorlari bilan chog'ishtirishi ularni atroflicha izohlashiga imkoniyat yaratadi. Shuni xarakterlik, Usmon Azim she'riyatidagi bosh qahramon aslida yakka shaxsning emas, balki shu millatga xos bo'lgan, orzu-umidlari, tashvishu quvonchlari bir-biriga hamohang bo'lgan kishilarning umumlashma obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi misolda boshqalar, ya'ni bekatdagi notanish juvon uchun qayg'urgan erkakning iztirob chekishi va bu vaziyat tasviri takror vositasida o'z badiiy qiyofasiga ega bo'lgan. Bu tasvir "Oltmishinchi avtobus to'xtab o'tadi" gapining takrorlanishi bilan yanada kuchaytirilgan:

Yomg'ir.

Bekat.

Erkakning egnida yomg'irpo'sh.

Ayolning ko'ylagi badaniga yopishgan.

(Oltmishinchi avtobus to'xtab o'tadi).

«Sovuq qotdi, — o'ylaydi erkak, —

Yomg'irpo'shni yelkasiga tashlasam

Xafa bo'lmasmikan?»

(Oltmishinchi avtobus to'xtab o'tadi).

«Chiroyli ekan, — o'ylaydi erkak, —

Yoshi ham o'ttizdan oshmagan.

Qani edi, shunday xotinim bo'lsa...»

(Oltmishinchi avtobus to'xtab o'tadi).

«Balki u taqdirimdir, — o'ylaydi erkak, —

Ammo yomg'irpo'shni

yelkasiga tashlasam,

otib yubormasmikan?

Baribir ayol-da...

Chiroyli bo'lsa ham...»

(Oltmishinchi avtobus olib ketadi ayolni).

She'r oxirida esa mazmun quyidagi tasvir bilan yakun topgan:

Uf tortadi erkak.

(Uyida

ivigan kiyimlarini

yana o'zi — xo'rsinib — yechadi ayol) (91-bet).

She'rlarning poetik ta'sirchanligi shundaki, she'rda lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan takror vositasida ko'tarilgan mavzu yakka shaxsning emas, balki umumbashariy muammo sifatida har bir o'quvchini hayajonga soladi, uni o'ylashga, shoir ichki kechinmalarini o'zinikidek bilib, shu nuqtai nazardan fikr yuritishga majbur qiladi. Uning "Grafika" she'rida "oq" va "qora" sifatlarini o'zaro zid qo'yish orqali takrorning nozik va beqiyos ko'rinishlari hosil qilingan:

Ko'zing **qaro** sening, qoshlaring **qaro**,

Yuzlaring **oq** sening, kulishlaring **oq**.

Qo'lingdagi ta'na toshlaring **qaro**,

Menga g'amgin boqib turishlaring **oq**.

Unutishing — **qaro**, hijroning **qaro**,

Sog'inching oppoq**dir**, xatlaring — **oppoq**.

Qarodir yurganing o'ch-mehr aro,

Menga tashlab ketgan dardlaring — **oppoq**.

Shommi, yo saharmi — vaqtimdir **qaro**,

Sen deb to'kayotgan yoshlarim **oppoq**.

Sening ham, mening ham baxtimdir **qaro**,

O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring **oppoq**.

Ishon, yurak **oqdir**, **qarodir** taqdir,

Oq-qora bo‘yoqlar bizning bog‘larda...

Men milyon bo‘yoqni bilardim, axir,

Ikkimiz baxtiyor bo‘lgan chog‘larda (86-bet).

Ma’lum bo‘ladiki, oq va qora sifatlari bir o‘rinda gunoh va begunohlik, rang, beg‘uborlik va ifloslik ma’nolarini aks ettiradi va misradan misraga tomon o‘zgarib boradi. Usmon Azim inson ruhiyati tasvirini berishda turli lingvopoetik vositalardan foydalanadi, bu kabi kechinmalarni berishda personajlar xarakter-xususiyatini yoritib beruvchi psixologik holatlardan hamda lingvopoetikaning takror deb nomlanuvchi ko‘rinishlaridan unumli foydalanadi.

Uning “Meni tinch qo‘y!” misrasi bilan boshlanuvchi she’riga e’tiborimizni qarataylik:

“Meni tinch qo‘y! Bor, qabrga bor,

Derazadan boqmagin, arvoh.

Yo‘qlik qo‘yib yubormas zinhor,

Endi qaytib kelolmaysan, oh... (99-bet)

She’rning boshlanishidanoq ko‘zga tashlangan ushbu misralar kitobxonda ajib bir qiziqish uyg‘otadi. Misralar mazmuni o‘quvchini o‘ylashga, she’rda kim haqida fikr yuritilayotganligini bilishga qiziqtiradi. Natijada, kitobxon voqealar girdobiga tushib qoladi va she’rda kuzatuvchi odam sifatida tasvirlangan voqealarda qatnasha boshlaydi. She’r qahramonining ichki kechinmalari, qolaversa, she’r mazmuniga singdirilgan his-tuyg‘ular ifodalanishi uchun bu holatda lingvopoetik vositalardan biri – takror yordamga keladi:

Kuyma! Meni sevar bu odam,

Tun umrimga tonglar to‘shaydi.

Rosti, unga dil berdim men ham,

Chunki **senga juda o‘xshaydi,**

Qara senga juda o‘xshaydi...” (99-bet)

She’rda qo‘llanilgan “senga juda o‘xshaydi” birikmasining takrorlanishi kitobxonga she’r qahramonining kim yoki nima haqida fikr yuritayotganligini,

asardagi voqea-hodisalar unga ilgaridan tanish ekanligini anglatadi. Asarda ayol tilidan hikoya qilinayotgan voqea aslida bir uyda ayol va begona erkak borligi, erkakning uxlayotganligi, derazadan esa iztirob chekayotgan boshqa bir erkak arvohining boqib turganligi badiiy tasviridan iborat. Hayotning beshafqat qonun-qoidalari inson sevgisi, his-tuyg'ularidan yuqori turishi, ruhan qiynalayotgan ayol ham, iztirob chekayotgan arvoh ham uning oldida ojiz va notavon ekanligi ayon bo'ladi. Muallifning poetik mahorati shundaki, u inson ruhiyati tasvirini berishda mavhum tushuncha hisoblangan arvoh obrazini she'rga olib kiradi va uni jonlantiradi. Lingvopoetikaning jonlantirish usuli vositasida hosil qilingan bu tasvir she'rning boshdan- oxirigacha yetakchilik qiladi.

Ayol asta pardani tortar,
Karavotda uxlar bir odam.
Arvoh tunga o'zini otar
Va chirqillay boshlaydi birdan (100-bet).

O'quvchini arvohning psixologik holatini tasvirlashda, arvohning o'z sevgisidan va oilasidan voz kechib keta olmaganligi holatini poetik tasvirlashda Usmon Azim takror usuliga murojaat qiladi. Endi arvohning ichki kechinmalari, hatto to'liqinlanib, gapira olmaslik holati takror vositasida yaqqol ifodalanadi:

Yuzga bosib bargi xazonni,
O'kirib-o'kirib yig'laydi, yohu!..
G'uldiraydi bitta kalomni:
"Axir, menga o'xshamaydi-ku..."
Axir menga o'xshamaydi-ku..." (100-bet)

Usmon Azim ushbu she'rida nutq ko'rinishlaridan, lingvopoetik vositalardan ustalik bilan foydalanadiki, buning natijasida o'quvchiga she'r mazmuni to'g'risida to'liqroq ma'lumot olishga imkoniyat yaratadi. Bu ma'lumot she'r qahramonlarining iztiroblari, ichki kechinmalarini ifodalashda qulay vosita hisoblanuvchi takror orqali o'z poetik ifodasini topadi. Ijodkor til birliklarini o'rinli qo'llay olsagina u tomonidan yaratilgan asar o'quvchi tomonidan yaxshi

qabul qilinadi. To'g'ri tanlangan til vositalari badiiy matnda qo'llanilar ekan, o'quvchiga badiiy-estetik ta'sir qilish vositasiga aylanadi va unda asarda tasvirlangan voqea-hodisa, kishilar xarakter-xususiyatlari badiiy tarzda o'z ifodasini topadi. Bu esa badiiy asar ijodkori tili va uslubi to'g'risida ma'lum bir xulosalarga kelishga asos bo'ladi.

Usmon Azim ijodida lingvopoetik vositalar muhim o'rin egallaydi. Shoir she'riyati tilini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish jarayonida uning badiiy tasvirning usul va vositalarini yaxshi bilishi va o'z she'rlarida ulardan mohirona foydalana olishining guvohi bo'lamiz. Tahlil jarayonida shoir asarlarida lingvopoetik vositalarning keng qamrovli ekanligi, ularning xalqona ohang hosil qilishda, takrorlanmas badiiy obrazlar yaratishda hamda boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan turli xil ma'no nozikliklarini poetik tasvirlashda eng muhim vositalardan ekanligi tobora oydinlasha boradi.

Bob xulosasi

1.Insonning jamiyatda tutgan o'rnini, ma'naviy qiyofasi, voqeylikda bo'layotgan har bir o'zgarishni qay darajada idrok qilishi uning eng nozik his-tuyg'ulari ifodasi bo'lgan badiiy matnlarda namoyon bo'ladi.

Badiiy matnlar xalqimizning asrlar mobaynida shakllangan va san'at darajasiga ko'tarilgan badiiy ijodi mahsuli bo'lib, u ajdoddan – avlodga o'tib kelgan ruhiyat hodisasi hisoblanadi, hamda u tildagi badiiy vosita va usullar yordamida o'z badiiy qiyofasiga ega bo'ladi. Badiiy ijod nafosat, go'zallikni idrok etishning o'ziga xos usuli ham bo'lib, unda xalqimizning ijtimoiy hayot tarzi, kechasi va buguni, ertasi, ma'naviy qadriyatlari, e'tiqodi kabilar o'z aksini topadi.Bularning barchasi badiiy ijod vositasida namoyon bo'ladi.

2.Tilimizda tovushdan tortib butun boshli gapgacha bo'lgan lingvistik birliklar she'riy asarlar tilida kitobxonga matn mazmuni to'g'risida ma'lumot yetkazish bilan chegaralanib qolmaydi. Ularda poetik matnlarda qo'llanilgan birliklar vositasida kitobxonga ta'sir etish ko'zda tutiladi.Shunga ko'ra lingvopoetika badiiy matnlarda qo'llanilgan birliklarning badiiy-estetik vazifalarini o'rganish bilan shug'ullanadi.Lingvopoetika tilshunoslikning alohida bir bo'limi sifatida badiiy matnlarni tadqiq etadi, shoir va yozuvchilar individual uslubi, til birliklarining badiiy matnlardagi o'rnini va vazifasi haqida ma'lumotlar beradi.

3.Usmon Azim ijodida she'riy asarlar tilining badiiy jihatdan obrazli va bo'yoqdor, ifodali va ta'sirchan bo'lishini ta'minlovchi lingvopoetik vositalardan biri o'xshatish hisoblanadi. Usmon Azim poetik matnlarida jamiyat hayotida, kishilarning kundalik turmushida yuz berayotgan turli voqea-hodisa, narsalarni kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalandirish uchun o'xshatishdan mahorat bilan foydalanadi. Bunda o'xshatish lingvopoetik vosita sifatida kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish vazifasini bajaradi. Usmon Azimning poetik matn mazmuniga mos keladigan o'xshatish hosil qiluvchi til birligini to'g'ri tanlanishi tilimizdagi so'z va iboralarni emotsional-ekspressiv vositaga aylanishiga zamin yaratadi.

4. Usmon Azim tilimiz qonun-qoidalariga amal qilgan holda o'zni bilan o'ziga xos betakror poetik manzaralar, ruhiy holatlar tasvirlarini yaratadi. Ana shunday vositalardan biri metafora bo'lib, shoir ijodida poetik tasvirni berish jarayonida hosil bo'ladi. Usmon Azim ijodida metaforaning vujudga kelishi to'g'ridan to'g'ri shoirning idroki, tafakkuri qamrovi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Metaforalar shoir asarlarida tilga olingan tushunchalar, fikr va tasavvurlarni ma'lum bir obrazlar sifatida kitobxon ongiga muhrlaydi hamda badiiy-estetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Usmon Azim ijodida individuallik u tomonidan qo'llanilgan lingvopoetik vositalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning she'riy asarlari tilida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metonimiyalarni ko'plab uchratish mumkin. Usmon Azim tomonidan to'g'ri tanlangan va o'rinli ishlatilgan metonimiyalar o'zlarining poetik ta'sirchanligi, matn mazmuniga bog'liqligi, kitobxon ruhiyatiga ta'sir etib, unda turli his-tuyg'ularni uyg'ota olishi bilan boshqa lingvopoetik vositalardan farqlanib turadi. Bu ham Usmon Azimning o'ziga xos so'z san'atkori ekanligidan dalolat berib turadi.

6. Usmon Azim she'riyatida qo'llanilgan sinekdoxalar tropning bir turi bo'lib, predmetlarga nisbatan qo'llanadigan son bilan bog'langandir, ya'ni predmetlarning son jihatdan birining (qismi, to'la) ma'nosi ikkinchisiga ko'chiriladi. Shoir o'z ijodida mahorat bilan butun o'rnida qism (yoxud, aksincha) yoki birlik o'rnida ko'plik (yoki aksincha) qo'llash orqali badiiy tasvirda o'ziga xos ifodalar yaratadi.

7. Jonlantirish metaforaning maxsus bir turi sifatida og'zaki nutqda ham, badiiy nutqda ham, o'xshatishlar kabi juda qadimdan ishlatilib keladi. Bu usuldan Usmon Azim mahorat bilan foydalanganligi seziladi. Shoir tomonidan tanlangan jonlantirishlarda kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari: so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chiriladi. Boshqacha qilib, aytganda, shoir ijodida jonsiz predmetlar insonlar kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlangan. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz, jonlantirishlar lirik qahramon

ruhiyatini ochib berishning eng qulay vositalaridan biri ekanligi ma'lum bo'ladi. Insoniy munosabatlar so'zlovchining nutq qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati qanday ekanligiga qarab ijobiy yoki salbiy tushunchalarni ifodalaydi. Usmon Azim o'z she'rlarida buni to'g'ridan to'g'ri aks ettirmaydi, balki ana shu tushunchalar doirasida qaraluvchi mavhum otlarni jonlantiradi. Shoir ularni harakatlantirish, so'zlatish orqali ularga o'z munosabatini, bahosini ifoda etadi. Shunday ekan, jonlantirishlar munosabat ifodalovchi, baholovchi birlik sifatida ham namoyon bo'ladi.

8. Usmon Azim she'riyatida ma'lum hodisa yoki hodisalar tasvirlanayotganda ularni ana shu kabi antonim so'zlar vositasida birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib qiyoslanadi va shoir ularga nisbatan o'zining munosabatini bildiradi yoki bir hodisani turli tomondan tasvirlash orqali o'quvchida unga ijobiy yoki salbiy munosabat uyg'otadi.

Shoir tomonidan favqulodda hosil qilingan noyob va obrazli ifodalar kitobxonni o'ziga jalb etadi, tanlangan ifodalarda Usmon Azimga xos badiiy tafakkur, asosli va mantiqiy xulosalar aks etadi. Shunisi xarakterliki, Usmon Azim o'zbek tilining boy, go'zal ifoda imkoniyatlari cheksiz ekanligini o'z she'riyati orqali to'la namoyon eta olgan.

2.USMON AZIM SHE'RIYATIDA MILLIY AN'ANA VA QADRIYATLARNI IFODALASHDA LINGVOPOETIK VOSITALARNING O'RNI

Respublikamizning milliy istiqbolga erishuvi tufayli tilshunoslik va adabiyotshunoslik qatori badiiy adabiyotga ham, uni tahlil qilish metod va usullariga, uni o'rganishga ham talablar ham butunlay o'zgardi. Bugungi kunda shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlarning badiiy-estetik imkoniyatlarini tadqiq etish asosiy vazifa ekanligi e'tirof etilmoqda.

«O'zbek tilshunosligida keyingi o'n yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e'tibor qilinganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva o'zining monografiyasida o'zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan. E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar ustida to'xtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi o'zbek she'riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an'anaviy poetizmlar, so'z variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar tadqiq etilgan. Ko'rinib turganiday, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo'yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog'lik katta bo'lishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo'lmaydi».¹Usmon Azim she'rlari shoirning ko'p yillik mehnati, xalq hayotini, insoniy munosabatlar, tabiatning betakror manzaralarini kuzatishi natijasidir. «Aytish mumkinki, badiiy nutq o'z tabiati, mohiyati va maqsadiga uyg'un holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi.

¹ Йўлдошев М.Бадий матннинг лингвопоэтик таҳлили. –Тошкент, 2007, 9-бет.

Qashshoq nutq hech qachon estetik ta'sir quvvatiga sohib bo'la olmaydi, estetik quvvatsiz esa badiiy nutq o'zining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy so'z san'atkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli sathlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a'zolarining boy nutq tuzish sinoatlarini o'rganishlari uchun bitmas-tuganmas manba, o'ziga xos maktabdir. Bu benazir maktabning a'lochi o'quvchilari bo'lish o'zini madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli ko'rmoqni istagan har bir kishining burchidir"¹. Xalqona ohang va baxshiyona ruh Usmon Azim she'riyatining bosh mavzularini belgilaydi. Uning she'rlaridagi milliylikka yo'g'rilgan, quruq tasvir va balandparvozlikdan yiroq bo'lgan oddiylik, soddalik va samimiyat, og'zaki ijodda yetakchilik qiluvchi xususiyatlar ana shu baxshiyona ruhning asoslaridir. Usmon Azimning bolalikda ko'rgan-kechirganlari, Surxondaryodagi baxshilar bellashuvi, ko'pkari, kurash singari urf-odatlar, bolalik xotiralari uning ijodkor sifatida shaxsiyatini, e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantirganligi tabiiy. Ijodkor bolaligida eshitganlari, turmush tashvishlaridan chekkan ozorlari, quvonch va qayg'ulari, orzu-umidlari uning she'rlarida turli-tuman lingvopoetik vositalar ko'rinishida namoyon bo'laveradi. Shu ma'noda Usmon Azim she'riyatini kuzatadigan bo'lsak, unda, eng avvalo, lingvopoetik vositalarning qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni, insoniy mehrga tashnalik, do'stlikni, ona yurtga muhabbat tuyg'ularini ulug'lashga xizmat qilganligini ko'rish mumkin. Usmon Azim she'rlarida "baxshi", "do'mbira", "chavandoz", "uloq", "o'tov", «jayron», «ohu», «kiyik», «qaldirg'och», "tulpor", "dasht", «kapalak», «lolaqizg'aldoq», «yalpiz», "boychechak", «yulduz», "pari", "dev", "kabutar", "do'st", "g'anim" kabi o'ziga xos obrazlar borki, ular she'rdan she'rga o'tish jarayonida tobora mukammallashib, yangidan yangi qirralarini namoyon etib boradi. "U bahorni kutdi intizor, // Yo'llariga ko'z tutdi ilhaq. // Quyosh chiqsa, erib bitsa qor, // To'yib-to'yib o'ynardi chillak. ("Bolalikning

¹ Маҳмудов Н.Ўқитувчи нутқининг маданияти –Тошкент, 2009, 156-бет.

so‘nggi kunlari”), Bahor bilan mast bo‘lib, // Kuylardik biz bolalar:// «Boychechagim boylandi, // Boychechagim boylandi...» (“Boychechak”),Boysun qirlarida bir o‘zim kezdim, // Kuz edi. Daralar tumanni quchgan.// Avval eshitgandim. U mahal sezdim,// Mening bir do‘stimning chirog‘i o‘chgan. (“Boysun qirlarida”), Xavotir ichinda deding: «Men ketdim...» //To‘xtading. Xo‘rsinding. Jo‘nading shitob.// Kuzgi chorbog‘ aro yo‘qolding, yitding,// Atlas liboslarga belangan sarob. (“So‘nggi uchrashuv”) Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurillatib, necha kampir-qizlarning yuragini dirillatib — ovuliga qaytib kelayotgan edi, bir karvonga duch keldi. Karvonning atrofida necha otliqlar chopishib kelishyapti, tuya-larni yetaklagan shotirlar qoqilib kelishayapti. Osmonga mushaklar otilgan, tuyalarga atlas kimxoblar yopilgan, yosh-yalanglar bo‘za ichib bo‘kirishgan, bir-biriga do‘q urishgan, tuya ustidagi qizlar ularga lab burishgan, karvonboshining peshonasi tirishgan — oldinda kelyapti. Elbek baxshi: «Ho‘v, karvonboshi, yo‘l bo‘lsin?»— deb so‘radi, karvonboshining oldini o‘radi. «Yo‘ldan qoch, bachchag‘ar, kelin olib ketayapmiz», — dedi karvonboshi. (“Baxshiyona” kitobidan 183-b)

Usmon Azim ijodida xalqchillikka yo‘g‘rilgan bunday misollarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin. Biroq shuni alohida qayd etish lozimki,Usmon Azim tomonidan tanlangan, xalq og‘zaki ijodi namunalari tiliga xos bo‘lgan va uning she‘riy asarlarida obraz darajasiga ko‘tarilgan detallar har gal o‘zlarining yangi-yangi nozik qirralari va fikr ifodalash imkoniyatlari bilan namoyon bo‘ladi. Shoir baxshiyona ruhda asar yaratar ekan, so‘z tanlashga alohida e‘tibor qaratadi. Quyidagi parchada milliylik ruhi aks etishida baxshi, ovul, egachi, og‘a kabi leksemalar muhim ahamiyat kasb etgan. Ular shu alfozda qancha turishganini bilishmadi. Avval Elbek baxshi o‘ziga keldi. Qarasa, ko‘zlari dardlashib to‘ymaydiganday. Shunda o‘zini tutib olib, ko‘z yoshini yutib olib, Oytumanga gap qotdi: «E, egachim, bunday qarasam, kelbatning ovulimizdagi Davlatbiyning qiziga mengzaydi. Shu yerlarga bir qizni kelin bo‘lib tushgan deb eshitaman. Shu sen emasmisan?», — dedi. Oytuman bir yutinib, ming bir tutilib:

«Davlatbiyning shu qizi men bo‘laman», dedi. «Borsam, elu yurtingga nima deyin?»— dedi Elbek baxshi. «Salom deng», - dedi Oytuman. «Yana nima deyin», - deb so‘radi Elbek baxshi. «Salom deng», - dedi Oytuman. «Xush qol bo‘lmasa, egachim», deb Elbek baxshi otiga qamchi tortdi. «Yaxshi boring, og‘am», deb Oytuman soy bo‘yida toshday qotdi... (192-bet)

Usmon Azim she‘rlarida shoir obrazli tafakkurining nihoyatda keng qamrovli ekanligi, kutilmagan holatlar, hamma ham birday idrok qilavermaydigan, faqat o‘tkir aql va mushohada egasigina ko‘ra oladigan eng nozik lavhalar o‘z badiiy qiyofasiga ega bo‘ladi. Shoir boshqalar nazarida oddiy tuyulgan holatlardan badiiy ko‘rinishlarni o‘z nozik didi bilan ilg‘ay oladi va ularni turli lingvopoetik vositalar orqali misralarga soladi. Ma‘lumki, alohida olingan shoir yoki yozuvchilar badiiy asarlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilishda poetik nutqning fikr ifodalashdagi imkoniyatlari shu asar misolida o‘rganib chiqiladi. Usmon Azim ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalanib, xalq tilida qo‘llanilib kelayotgan ma‘lum darajada milliylik ufurib turgan so‘z va iboralarining ma‘nosini matnga bog‘liq holda kengaytirishga harakat qiladi. Usmon Azim she‘riyatida milliy qadriyatlar, urf-odatlarini ifodalashda lingvopoetik vositalarning qo‘llanishi haqida fikr yuritganda quyidagi fikrlarni e‘tiborga olish lozim. “Har bir xalqning turmush sharoitlari, marosim va an‘analari shu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan bo‘lib, o‘sha xalqqa xos bo‘lgan milliy belgi va xususiyatlarning muhim jihatlarini tashkil etadi. O‘zbek xalqining turmush an‘analari uzoq asrlar davomida yuz bergan turli iqtisodiy-siyosiy o‘zgarishlarga qaramay milliy o‘ziga xosligini saqlab keldi. Turmush an‘analari ijtimoiy, shaxsiy va oilaviy hayotning zaruriy va doimiy tomonlari bo‘lgan turar joy, oziq-ovqat, kiyim-bosh, bola tarbiyasi, turmush qurish, o‘lim kabi hodisalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu traditsiyalar doimiy takrorlanishi natijasida qat‘iy marosimlarga aylanib qoldi. Etnografizmlar o‘zbek xalqining lug‘at tarkibida anchagina miqdorni tashkil qiladi va u mahalliy sheva xususiyatlarini o‘zida aks ettirib turadi. Etnografik leksika ayrim o‘xshashliklarni hisobga olmaganda, umumxalq tilida bir xilda

qo'llanmaydigan so'zlar bo'lib ko'p jihatdan mahalliy xususiyat kasb etib turadi. Shuningdek, etnografizmlar ham boshqa til hodisalari kabi xalq tarixi bilan bog'liq bo'lish bilan birga, xususan, mahalliy territoriya gruppasi kishilarining o'ziga xos ijtimoiy faoliyati, mehnat jarayoni, madaniy-maishiy turmushi bilan ham uzviy bog'liqdir"¹.

Bugungi kunda mustaqillik davri o'zbek adabiyotida milliy urf-odatlarimiz, san'atimiz bilan bog'liq so'z va iboralarni qo'llash deyarli har bir shoir va yozuvchilarimiz ijodida uchraydi. O'zbek adabiyotida mustaqillik davrida yetishib chiqqan ijodkorlar orasida har bir tanlangan leksik-frazeologik birliklarni milliylik ifodalovchi lingvopoetik vositaga aylantirishda Usmon Azim o'ziga xos uslubga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, Usmon Azim do'mbira so'zidan mahorat bilan foydalanish orqali matnga milliy ruh kiritgan va kitobxonni milliy o'zligini anglashga, ajdodlarimiz urf-odatlari bilan faxrlanishga undaydi. Shu nuqtai nazardan shoirning baxshiyona ruhda yaratilgan asaridan olingan quyidagi parchaga e'tiborimizni qarataylik:

Birodarlar, ana endi Elbek baxshi Asqar tog'ining boshida o'tiribdi. Atrofga qarayapti: bir tomon Sayxun, bir tomon Jayxun, bir taraf ko'l, bir taraf cho'l. Ana Samarqand Buxoro, undan nari Xorazm, shundoq to'g'rida Surxoni azim...

Baxshining dili to'liqib, ichida doston to'kilib kelayapti. Tilida qo'shiqlar tuzilyapti, qo'li do'mbiraga cho'zilyapti... Shu alfozda ko'zlari suzilib, ko'ngli buzilib turgan edi. «Hormang, baxshi bobo», degan tovush qulog'iga urildi. Baxshi burilib qarasa, Oqbotir bilan Qorabotir otlarini yetaklab, daradan chiqib kelishyapti. «Endi bir qo'shiq aytib berasiz», deb kulib kelishyapti. (205-bet)

Milliy-ma'naviy qadriyatlarni, asrlar davomida shakllangan urf-odatlarni o'zida aks ettirgan ona tilimiz lug'at boyligini shoirona tafakkur bilan ilg'ay olgan shoir o'zining har bir she'rida so'z tanlashda ana shu mezonlarga tayanadi, tanlangan birliklarni o'z tafakkur chig'irig'idan o'tkazadi. Shoir tomonidan

¹ Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Фан, 1991, 4-бет.

favqulodda hosil qilingan noyob va obrazli ifodalar kitobxonni o'ziga jalb etadi, tanlangan ifodalarda baxshiyona ruh, badiiy tafakkur, asosli va mantiqiy xulosalar aks etadi. Shunisi xarakterliki, Usmon Azim o'zbek tilining boy, go'zal, ifoda imkoniyatlari cheksiz ekanligini o'z she'riyati orqali to'la namoyon etgan.

Tadqiqotchining shoir asarlari tahlili jarayonida Usmon Azimning til mahorati va uslubiga ham alohida e'tibor qaratishi, asar tiliga xos lingvopoetik hodisalarni, leksik xususiyatlarni hozirgi o'zbek adabiy til me'yorlari bilan chog'ishtirishi ularni atroflicha izohlashiga imkoniyat yaratadi.

Shoir asarlarida qo'llanilgan til birliklari badiiy asarning, yoki Usmon Azim ruhiyatining o'ziga xos badiiy manzarasi, emotsional yoki insoniy qiyofasini aks ettiruvchi vositalardir. Darhaqiqat, Usmon Azim she'riyatida ifodalangan o'zbekona yoki mahalliy kaloritni ifodalovchi g'oyalar va tushunchalar shoir ichki dunyosining o'ziga xos nozik qirralarini aks ettiradi. Asarda ifodalangan g'oyaviy mazmunga, shoirning kitobxonga aytishni mo'ljallagan fikrlarini qo'shimcha ma'nolar bilan boyitadi hamda poetik ta'sirchanlikni oshiradi. Usmon Azim she'riyatidagi milliy qadriyatlar, urf-odatlarni ifodalovchi so'zlar, tushunchalar, xalq ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan turli voqealar xalqimizning asrlar davomida shakllangan, ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan milliy xususiyatlarini to'lasincha o'zida jamlagan. Shoirning baxshiyona ruhda yaratilgan she'rlarida milliy ruh aniq va obrazli, ortiqcha tasvir va bezaklarsiz o'z badiiy qiyofasiga ega bo'ladi. Bu individuallikning namoyon bo'lishida shoirning o'z xalqi milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi, xalq hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar markazida turishi, bu esa uning o'ziga xos dunyoqarashi, ongi va tafakkuri, go'zallikni idrok etishi va dard sifatida qog'ozga tushishining guvohi bo'lamiz. Usmon Azim ijodiga xos xususiyatlardan biri shuki, shoir milliy-ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi so'zlarni qo'llaganda shu millatga mansub har bir kishi ruhiyatiga ta'sir etuvchi jumalardan foydalanadi va ular shoirning ichki olamini yoritib beradi. Shoir buning uchun xalq og'zaki ijodida

faol qo'llanuvchi tushunchalarni ifodalovchi maqol, matal, aforizmlar kabi turli-tuman vositalarga murojaat qiladi.

Nada do'zax olovi yamlar,
Nada eshik ochadi behisht —
Ko'kragingni arosat qamrab,
Qolganida yuraging beish (213-bet).

Usmon Azim ijodida uchrovchi bunday tasvirlarda tilimizda ifoda-tasvir vositalari deb yuritiluvchi epitet, metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, antiteza, parallelizm, kinoya, piching, jonlantirish kabi lingvopoetik vositalar faolligi bilan ajralib turadi. Usmon Azim she'riyatida bu kabi lingvopoetik vositalarning o'ziga xos o'рни bor. Masalan, Usmon Azimning baxshiyona ruhda yozilgan she'rlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlarni ifodalovchi so'z va iboralarining qo'llanganini, ma'lum bir ijtimoiy voqea-hodisalar, xalq ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, shuningdek, asar qahramoni yoki muallif ongida kechuvchi holatlarni ifodalashda mazkur birliklarning to'g'ri tanlanganligini, o'z o'rnida ishlatilganligini ko'rish mumkin. Shoir "Abdulla Qodiriy" she'rida shunday yozadi:

Bo'g'zimga bahaybat qayg'u tiqildi,
Ko'zimga yiqildi qop-qora bulut.
Tizzamdan sirg'alib kitob yiqildi,
Birdan sinfga cho'kdi bir hayron sukut.
Partaga bag'rimni berib yig'ladim,
Sukunatga aytdim: «Jon berdi... Kumush...»
Muallim jilmayib meni tingladi,
Boshimni siladi ham shod, ham xomush (26-bet).

Shoir ushbu she'rda oddiygina, o'quvchining dars jarayonidagi ruhiy holati tasviri bilan chegaralanib qolmagan, unda ifodalangan fikrlar o'quvchining eng nozik his-tuyg'ularini qitiqlaydi. She'rdagi "Bo'g'zimga bahaybat qayg'u tiqildi, Ko'zimga yiqildi qop-qora bulut" kabi qahramon ruhiy holatini ko'z

oldimizda aniq tasvirlovchi betakror ifodalar pokiza, begunoh bola obrazini namoyon qiladi. Misralarda tasvirlangan bola aslida umumlashma obraz bo'lib, u millatning, o'z farzandi- Abdulla Qodiriy uchun armon chekayotgan xalqning badiiy qiyofasidir. Usmon Azimning poetik mahorati shundaki, u bu fikrlarni qalamga olingan mavzu mohiyatiga singdirib yuboradi. Shoir aksar hollarda aynan xalq donoligini, azaliy haqiqatlarni she'r matniga olib kiradi va qo'llashi jarayonida og'zaki nutqda ko'p qo'llanuvchi birliklarga murojaat qiladi. Shoirning "Vatan haqida she'r" deb nomlanuvchi she'ri ikkinchi jahon urushi davrida mamlakatda ocharchilik hukm surgan vaqtdagi xalqimiz hayotini tasvirlashga bag'ishlangan. Shoir unda "Osmon yiroq, yer qattiq" maqolini ishlatish bilan qahramon ruhiy holatini yaqqol tasvirlashga erishgan:

Kaftingizga jonsarak

Yashirdingiz boshqni.

E voh, yer shuncha qattiq,

Osmon shuncha uzoqmi?! ("Vatan haqida she'r", 47-bet)

Tilimizda "It hurar, karvon o'tar" maqoli bor. Shoir shu maqolni asl holida keltirmay, uning mazmunini she'rga singdirib yuborishga turli leksik vositalar yordamida erishganligi quyidagi parchada o'z aksini topgan:

Zamon!

Sen turibsan nechun parishon,

Nechun so'nib borar vujudingda cho'g',

Hali o'lganim yo'q,

yashayapman omon -

itlar yetovida

qolganim ham yo'q!

Qani, yur,

yetaklab seni keturman,

Uzoq-uzoqlarni ko'rmoqda ko'zim, -

Men seni itlarga berib qo'ymayman -

Seni yuraginga eltaman o‘zim! (130-bet)

Keltirilgan misolda shoir fikrlarining kuchli mantiqqa egaligi seziladi. “Mantiqiylik nutqning maqsad nishoniga bexato yetishini, bu nishonni ortiqcha urinishlarsiz zabt etishini ta’min etadigan sifatlardandir. Mantiqiy nutq fikr tarkibini to‘g‘ri va aniq aks ettirishi bilan ta’sirchanlik kasb etadi, ayni paytda u tinglovchi idrokini zo‘riqtirmaydi. Har qanday mantiqiy fikr qanchalik murakkab bo‘lmasin, nutq tuzuvchining mahoratli ko‘magi bilan o‘ziga loyiq va yarashqli, demakki, mantiqiy libosini kiya bilsa, tinglovchi shuuri uni osonlik bilan o‘z bag‘riga oladi”¹. Aslida she’rlari mantiqli va obrazli ifodalarga boy shoirning o‘zi ham ayni damda donishmand, hayotiy tajribalarga ega bo‘lgan faylasuf sifatida namoyon bo‘ladi. Uning she’riy misralarida falsafiy xulosalar qaymog‘i bo‘lgan fikrlar ko‘p uchraydi.

Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan lingvopoetik vositalar shoirning xalq tilidagi mavjud tasvir vositalaridan, uning beqiyos go‘zal tilining yashirin imkoniyatlaridan juda o‘rinli foydalanganini, shoirning o‘ziga xos individual uslubi xalqona ekanini namoyon etadi. Bu holat Usmon Azimning xalqimizni faxri bo‘lgan Alpomish obrazini yaratishga bo‘lgan harakatlarida, tanlagan lingvopoetik vositalarida yaqqol ko‘rinadi:

Bir ninachi — sarxushu dovdir —

Jirkanmasdan qo‘ndi qo‘limga...

Titroq yetdi jonimga dovur,

Nogoh hayron boqdim o‘limga.

Va eshitdim, yerning tagida

Dupur-dupur — yelib kelar ot.

Men — Alpomish behol yotibman,

Shoshib kelar Qorajon — Hayot! (42-bet)

¹ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқининг маданияти. -Тошкент, 2009, 117-бет.

Yurtboshimiz I.A.Karimovning “Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri — Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz — bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz. Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazadi. Bu qahramonlik eposini kuylab uni qalbiga, shuuriga jo qilgan millatni esa hech qanday kuch yenga olmaydi”¹ degan fikrlari tilimizda mavjud bo‘lgan birliklarning lingvopoetik xususiyatlarini, milliylikni ifodalashdagi vazifalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu kabi antroponimlarni badiiy matnga olib kirish va uni lingvopoetik vositaga aylantirish Usmon Azim ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Usmon Azim xalqimizning o‘tmishdagi hayoti, ajdodlarimiz to‘g‘risida fikr yuritar ekan, Alp tegin, Navoiy, Nodira, Gulxaniy, Mashrab kabi antroponimlarni qo‘llaydi va ularni Vatan tushunchasi bilan uyg‘unlashtiradi:

Qog‘ozlarga yozdim... Qog‘ozlar yondi.

Bu sirni o‘yladim — topdim, nihoyat:

Men Usmon emasman, Alpteginman — men,

Enasoy bag‘rida to‘lg‘ongan g‘oya (“Bitik toshlar orzusi”, 149-bet).

Yoki

Yomg‘irday bir sog‘inch ko‘ksimga to‘ldi,

Yurakka tutashdi notanish g‘ulu.

Nogoh Vatanimni ko‘rganday bo‘ldim,

Qodiriyning xuddi o‘zi edi u.

To‘rt devordan bo‘lsa, boqardilar jim,

Sinovchan ko‘zlarin ko‘zimga qadab,

Hozircha suratda taniganlarim —

Navoiy, Nodira, Gulxaniy, Mashrab... (Abdulla Qodiriy, 26-bet)

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008, 33-34-бетлар.

Shoir “Samarqand ildizing qayerda?” she’rida Spitamen, Ulug‘bek antroponimlarini hamda sarbadorlar so‘zini qo‘llash bilan xalqimizning ko‘p asrlik tarixga egaligi va uning har bir davrda o‘z yetakchi daholariga egaligiga ishora qilmoqda:

Ammo ovozlari chiqar zamin qo‘ridan:

- Men, - deydi (Spitamen, senmisan?).

- Men, - deydi (Ulugbek, senmi?),

- Biz, - deydi guvillab bir lashkar

kelajakka ergashib kelar sarbadorlar!

- Samarqand, ildizing... (Samarqand ildizing qayerda?, 46-bet)

Usmon Azim she’rlarida o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan, turli xil ma’no nozikliklarini ifodalash imkoniyatiga ega bo‘lgan tiliga xos hikmatli ifodalar, jozibador iboralar, hazil va tagma’nolarning muallif kommunikativ maqsadiga mos holda o‘z o‘rnida ishlatilishi ularning o‘zbek xalqiga xos ruhi va yuksak badiiy estetik ta’sirchanligini ta’minlagan. Xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar va xalq tilida mavjud bo‘lgan fikr ifodalashda qulaylik tug‘diruvchi frazeologik birliklar, badiiy adabiyotda qo‘llanishi odat tusiga kirgan badiiy san’atlar, ayniqsa, fikr ifodalash bilan bog‘liq ma’no ko‘chish hodisalari, ularda har xil ma’no nozikliklari ifodalanishi natijasida go‘zal poetik manzaralar hosil qilinadi.

N.Shukurov “Uslublar va janrlar” kitobida G‘.G‘ulom ijodida milliylikning aks etishi haqida fikr yuritarkan, «quyoshga tig‘ urib uchgan kurkunak, dosh qozonda qaynab pishayotgan shinnilar, qirq besh xil uzumlar osilgan atan, janaqi, qandil olmalar, qo‘g‘a poyasiga bog‘lab shipga osilgan qovunlar, nimtatir shabada, shabnam, bedana, chaylaga o‘rmalab chiqqan suvqovoq, zumrad butoqda, oltin chanoqda ochilib yotgan paxtalar haqida gapirib, O‘zbekiston kuzining o‘ziga xos

ko‘rinishlarini milliy psixika bilan idrok etadi va tasvirlaydi»¹, - deb yozadi Bu fikrlar Usmon Azim ijodiga ham birday taalluqlidir.

Xalqning bugungi kundagi tashvishi, maqsadi, quvonchini his qila bilgan Usmon Azim o‘z she’rlarida ularni ochib berishga intiladi, o‘z maqsadiga mos lingvopoetik vositalar axtaradi. Bu intilish shoir she’rlariga baxshiyona ruh bag‘ishlaydi. Lingvopoetik vositalarni xalq milliy-ma’naviy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ichki kechinmalarini ifodalash vositasiga aylantirishda Usmon Azim baxshilik san’ati qoidalariga ham ma’lum darajada amal qiladi. Baxshilar tomonidan oddiygina ijro jarayonida qo‘llanuvchi so‘z va iboralar Usmon Azim she’riyatida yangicha ruh va vazifa oladi. Usmon Azim she’riyatida baxshi tilidan oddiy so‘zlarning takror qo‘llanishi bir tomondan lingvopoetik vositani, ikkinchidan, milliy ohang, uslubni yuzaga keltiradi. «Uslub bir vaqtning o‘zida mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham. Bularning barchasi birlashganda asar bus-butunligini uslub ta’minlaydi. Shunga ko‘ra yozuvchi uslubini so‘zga, tilga – ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot – so‘z san’ati, til adabiyotning birinchi elementi bo‘lsa-da, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri – zaruriy elementi sanaladi. Uslubni yuzaga keltiruvchi eng zarur omillardan yana biri–san’atkorning hayotni, uning mohiyatini, qa’ridagi haqiqatni tadqiq va tahlil qila bilishi bilan bog‘liqdir. Inson ruhiyatining boy va yashirin sirlarini, ularning tub estetik qimmatini kashf etish san’ati–ruhiyati, bilimdonligi bilan bevosita aloqadordir. Demak, uslub – yozuvchining voqeylik va insonni idrok qilish, ularning qalbidagi haqiqatning kashf etishi va uni so‘z vositasida obrazli ifodalay olishi - bu vazifalarni individual (o‘ziga xos) tarzda yaratish san’atidir»².

Usmon Azim she’rlari tarkibida kelgan «aytdim» leksemasi mohiyati lingvopoetik vositalar haqidagi yuqorida aytilgan fikrlarning barchasiga mos

¹ Шу к у р о в Н. Услублар ва жанрлар.- Тошкент, 1973, 30-бет.

² Умуров Х. Адабиёт назарияси.- Тошкент: Шарк, 2002. 236-бет.

keladi, badiiy matning umumiy talablariga bo'ysunib, uning semantik ma'nosi poetik jihatdan sezilarli darajada kengayadi.

Usmon Azim "Baxshiyona" turkumiga kiruvchi she'rlaridan birida shunday yozadi:

Maysaga ezmayman, deb aytdim,
Daraxtga kesmayman, deb aytdim.
Tuprog'imga, sen deb o'lsam,
Og'riqni sezmayman, deb aytdim.
Ayolga suyaman, deb aytdim,
Ishqingda kuyaman, deb aytdim.
Sening bosgan izlaringga
Boshimni qo'yaman, deb aytdim.
Sahroga tog' bo'lasan, deb aytdim.
Kechaga oq bo'lasan, deb aytdim.
Shaytonga, ayolni sevsang
Imonday pok bo'lasan, deb aytdim (185 bet).

Usmon Azim o'zining "Baxshiyona" turkumiga kiruvchi ko'plab she'rlarida ayni bir so'zga qayta-qayta murojaat qilgani kuzatiladi. Bu usul bilan shoir o'z mo'ljaliga, ya'ni kitobxonga ta'sir qilishga erisha olgan. Masalan, u Elbek baxshi va uning shogirdi Elomon o'rtasidagi suhbatni ifodalashda Elomon tilida "chidagin" so'zini takror qo'llashga intiladi:

Ustozim deganing she'rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa, —
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo'shiqqa aylansin! (186-bet)

She'ni tahlil qilishga harakat qilaylik. Aslida she'rda qo'llanilgan "chidagin" so'zi alohida olinganda nutq qaratilgan shaxsni ma'lum xatti-harakatni bajarishdan qaytarish, nutq so'zlanib turgan vaqtdagi holatga sabr qilishga undash ma'nosini bildiradi. Shoir nutq qaratilgan kishini sabr qilishga undash sabablari – ustozning she'rfurushligi, ayolning erfurushligi, podshoning elfurushligi kabilarni keltirib o'tadi. Keyingi misralarda esa takror vositasida muallif munosabati ham oydinlasha boradi.

Chin qolib, yolg'onlar topsa marhamat,
Yaxshimas, yomonlar topsa marhamat,
Aldamchi zamonlar topsa marhamat
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a chidagin,
Ohlaring qo'shiqqa aylansin! (186-bet)

Shoirning munosabat bildirishiga yolg'onlar, yomonlar, aldamchi zamonlarning marhamat topganligi sabab bo'lgan. Shoir she'rda o'z falsafiy xulosalari, umumlashmalarini berishda lingvopoetik vositalarga murojaat qiladi. Bu esa she'rda "Dardlaring taningga joylansin. Chidagin, bolam-a chidagin, Ohlaring qo'shiqqa aylansin!" tarzida o'z aksini topadi. She'rda ifodalangan mazmun yurtimizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishdan ilgari turli davrlarda arab, rus bosqinchilari tomonidan vayron etilganligi, xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatlari oyoqosti qilinganligini aks ettiradi. Demak, Elomon baxshining "chidagin, bolam-a chidagin" deyishida ma'lum bir maqsad yotibdi. U bolani ko'nikishga, boshqalarning buyrug'ini so'zsiz bajarishga undayotgani yo'q. Balki yuqorida aytilgan sabablar bilan bolani tanishtirish orqali uni jang qilishga, o'z yurti, milliy-ma'naviy qadriyatlarini himoya qilishga ruhan tayyorlamoqda. Bunda Elomon baxshiga lingvopoetik vositalardan biri bo'lgan takror juda qo'l kelganligi bilinadi. Usmon Azim mustaqillik kuychisi, mustaqil ona-Vatanini jondan ortiq sevuvchi shoir. Shuning uchun uning ijodida mustaqillik g'oyalarini ifodalovchi leksik-frazeologik birliklar, lingvopoetik vositalar muhim o'rin tutadi. U

lingvopoetik vositalarni qo'llashda ona tilimizning nozik so'z va iboralari, lingvopoetik imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga intiladi

Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, uning milliy urf-odatlarimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni yaxshi bilishi va ularni o'z she'rlarida mahorat bilan ifodalay olganligining guvohi bo'lamiz. Usmon Azim she'rlari matnida xalq og'zaki ijodi ruhi hamisha sezilib turadi. Masalan, « Uloq » she'rida chavandoz va uning uloqchi oti haqida so'z yuritiladi.

Shoir ijodida uloq, chavandoz kabi leksemalarning qo'llanishi bundan guvohlik beradi. Shoir bir she'rida chavandoz ruhiy holatini berish bilan o'zbek xalqining milliy sport o'yinlaridan biri–uloq to'g'risida ma'lumot beradi va chavandoz holatini tasvirlash bilan bu o'yinning xalqimiz uchun nihoyatda ardoqli ekanligiga ishora qiladi:

Chavandoz uloqdan qaytdi piyoda,
- Ranglaringiz bir ol, ayting, ne bo'ldi?
- Onasi, dardimni qilma ziyoda,
Onasi, otginam... otginam o'ldi, ...
Chavandoz xo'rsinar... Tong otar edi,
Eng so'nggi yulduzlar borardi botib,
Xotini shivirlar: «Hech xafa bo'lmang,
Sizga ot olamiz uy-joyni sotib...» (35-bet)

Ko'rinadiki, kitobxon yuqoridagi misralarni o'qish bilan milliy o'yinimiz to'g'risida ma'lumot oladi,er-xotinlik munosabatidan, erkak kishining oiladagi mavqei yuqori turishi bizning milliy xususiyatlarimizdan biri ekanligidan xabardor bo'ladi.

Shoirning “Bolalikning so'nggi kunlari”, “Boychechak” she'rlarida bizning milliy o'yinlarimiz va qo'shiqlarimiz to'g'risida so'z yuritilgan. Uning “Bolalikning so'nggi kunlari” she'rida chillak o'yini tasviri kitobxonni olis bolalikka tomon yetaklaydi:

U bahorni qutdi intizor,

Yo‘llariga ko‘z tutdi ilhaq.

Quyosh chiqsa, erib bitsa qor,

To‘yib-to‘yib o‘ynardi chillak (50-bet).

“Boychechak” she‘rida esa bolalar folklori materiallariga murojaat qilingan:

Bahor bilan mast bo‘lib,

Kuylardik biz bolalar:

«Boychechagim boylandi,

Boychechagim boylandi...» Boychechak (51-bet).

Bunda takror vositasida poetik tasvir kuchayib, matnda o‘zaro uyg‘unlik hosil bo‘lgan.

Usmon Azim mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida teran mushohadali, tabiat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarni sinchkovlik bilan kuzatuvchi sifatida o‘zi ilg‘agan, guvohi bo‘lgan manzara va lavhalarni tildagi mavjud lingvopoetik vositalar yordamida ifoda etadi. Hayotni shoirona ko‘z bilan kuzata olish va ularni tahlil qila olish xususiyatiga ega bo‘lgan Usmon Azim o‘zi yashab turgan jamiyat va tabiatdagi yuz berayotgan turli xil voqea-hodisalar markazida turadi. Shuning uchun ham Usmon Azim she‘riyatida kutilmagan tasvirlar hamda obrazlar kitobxon e‘tiborini jalb etadi. She‘rdagi misralardagi takrorlanib keladigan “boychechagim boylandi” gapi muayyan bir bolalik davri, lahza, holat mohiyatini o‘zida mujassam etgan.

Usmon Azim o‘zining “Eski qo‘shiq” she‘rida lirik qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari tasvirini berishda milliy cholg‘u asboblari nomlaridan foydalanadi. Tabiiyki, o‘zbek milliy cholg‘u asboblari ichida childirma va nog‘ora to‘y marosimi, oshiqning o‘z yori uchun chekkan azobining qay darajada kuchli ekanligini ifodalash uchun juda mos keluvchi lingvopoetik vosita hisoblanadi. “Eski qo‘shiq” she‘rida milliy madaniyatimiz bilan bog‘liq childirma, nog‘ora kabi san‘at atamaları o‘rinli qo‘llanilgan:

To‘ying bo‘ldi, darangladi

Childirmayu nog'ora.

Men ko'changda bo'zlab kezdim,

Muzlab kezdim —devona ("Eski qo'shiq", 109-bet).

Usmon Azim matnda childirma, nog'ora so'zlarini qo'llash bilan o'zbekona urf-odatlar, milliy to'ylar to'g'risida ma'lumot bermoqdaki, bu leksemalar o'quvchida tasvirlanayotgan voqeani aniq tasavvur qilishiga yordam beradi.

Usmon Azim she'riyatida milliyligimiz bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir xususiyat kuzatiladi. Shoir ruhiyati va ijodiy tafakkurining keng qamrovli ekanligi quyidagi parchada aniq ko'rinadi. Matnda qo'llanilgan leksik vositalar lingvopoetik ta'sirchanlikni ta'minlovchi birlik bo'lib qolmasdan, G'afurning do'ppisi birikmasi yordamida o'zida milliylikni ham aks ettiradi Shoir do'ppi so'zini milliyligimizni ko'rsatuvchi leksema sifatida qo'llashga alohida e'tibor beradi:

Men bir bola edim — o'n olti yoshda.

Bu da'vat ma'nosin qayda chaqmog'im?

G'afurning do'ppisin qo'ndirib boshga

Qarshidan chaqnadi she'rning chaqmog'i (102-bet).

Darhaqiqat, shoir to'g'ri ta'kidlab ko'rsatganidek, mashhur o'zbek shoiri G'afur G'ulomni do'ppisiz tasavvur qilish qiyin. Do'ppi bosh kiyimi sifatida millatimiz bilan bog'liq. U milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni eslatib turadi. Ammo joylarda uning turli ko'rinishlari mavjud. Usmon Azim buni yaxshi bilgan va she'rda unga ishora qiladi. Quyida shoir o'zi tasvirlanayotgan kishining qayerdan ekanligini ko'rsatishda do'ppi leksemasidan bir vosita sifatida foydalangan:

Bu odam — qizchaning va bolaning otasi —

«Paxta bayrami»ga kiyib chiqsin deb

Bayramlik izlaydi farzandlariga.

Bunisi, aniq, Boysundan kelgan

(boshidagi gilam do'ppisi guvoh)

O'tgan mashinaga qo'l ko'taradi —
poyezdga shoshyapti.

Poyezd uni Boysunga olib ketadi... (Ko'chadan reportaj, 105-bet)

Darhaqiqat, Surxondaryo viloyatida erkak kishilar gilam nusxa do'ppi kiyishadi. Inson ma'naviy olamining beqiyosligi, ijodiy hurlikni mustaqilligimizning muhim omili deb bilgan Usmon Azim tildagi mavjud birliklarni tanlashda ularni o'z fikrlari va tuyg'ularini aniq va tiniq aks ettirishga bo'ysundiradi. U buning uchun tilimizdagi yuqoridagi kabi etnografik atamalar, so'z va iboralarni ishlatadi. She'riyatda yuqorida keltirilgan bu kabi nozik poetik tasvirlar faqatgina Usmon Azim kabi kuzatuvchan shoirlar ijodiga xosdir.

Umuman, o'zbekona folklor materiallariga tayangan holda bunday poetik ifoda tarzi Usmon Azimning badiiy tafakkuriga, voqelikni idrok qilishiga, demak, uning badiiy ijodiga xos bo'lgan eng muhim tamoyillardan biri sanaladi. Zero, jonli xalq tilida, milliy- ma'naviy qadriyatlarimiz ifodasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalarida bu tarzda lingvopoetik vositalardan keng foydalaniladi. Quyidagi she'rda shoir milliy-ma'naviy boyligimiz bo'lgan san'at asari nomini qo'llashida ham bu seziladi:

«Shashmaqom»ning qay sho'basida

Yig'layotir ko'nglim bu kecha?

Musiqani bo'lmagin, bedard...

Olam temir zerhini yechar ("Tungi konsert", 279-bet).

Usmon Azim she'riyatida muallif tomonidan tanlangan tabiat manzaralari, turli insoniy munosabatlar aks etgan lavhalarda qo'llanilgan leksik-frazeologik birliklar, lingvopoetik vositalar ko'p hollarda bevosita o'zlari anglatgan ma'nolardan tashqari qo'shimcha ma'nolarni ifodalash vazifasiga ham ega bo'ladilar, lirik qahramon ruhiyatida yuz beruvchi holatlarni milliylik nuqtai nazaridan ifodalovchi poetik mushohadalar bilan uyg'unlik hosil qiladi. Usmon Azim milliylik ifodalovchi baxshiyona ruhda yaratilgan she'rlarida ayniqsa, o'zbekona fikrlovchi obrazlar yaratish, she'rlarning badiiy-estetik ko'lamini

yanada kengaytirishga , tildagi lingvopoetik vositalardan o‘rinli foydalanishga intiladi.

Usmon Azim bu kabi baxshiyona usul yordamida, avvalo, she‘rning xalq og‘zaki ijodiga xos tarzda jonliligi, hayotiyligi va jo‘shqinligi, badiiyligi va estetik ta‘sirchanligini oshirishga erishadi. She‘rlarda xalqimizning asrlar davomida yuragi qatlarida saqlab kelingan ezgu armonlari, orzu-umidlarini Elomon baxshi tilidan izhor etadi. Umuman, Usmon Azim o‘z she‘rlarida barcha obrazlar mohiyatini asosan baxshilar va oddiy odamlar tili orqali yoritadi, fikr yuritishda, o‘zaro muloqot jarayonida so‘zlarni qay tarzda qo‘llashni ularning o‘ziga topshiradi. Bu ham xalq og‘zaki ijodiga monand usulda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilar uslubiga xos xususiyatlardan biri hisoblanadi. Usmon Azim ijodida xalqimiz vakillari hisoblangan baxshilar o‘z aytishuvlarida xalq dilidagi dardu armonlarini bemalol, ochiqchasiga kuylash orqali o‘zlarini ham tanita boradilar, o‘zlarining qanday shaxs ekanliklarini qo‘llagan so‘zlari, iboralari, lingvopoetik vositalari orqali aks ettiradilar.

Usmon Azim mustaqillikning ilohiy ne‘mat ekanligi, tabiatning beqiyos go‘zalligi, xalqimizning tinchlikka, do‘stlikka, milliy urf-odatlarimizga , inson omiliga bo‘lgan munosabatini milliy ma‘naviyat ifodasi bo‘lgan lingvopoetik vositalarga singdiradi.

Ikkinchi bob xulosasi

1. Usmon Azim she'riyati bizning millatimizga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlarni ifodalashda, tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga yangicha nuqtai nazardan yondashuviga ko'ra davrimizning boshqa ijodkorlaridan ma'lum darajada ajralib turadi. Shoir ijodining o'ziga xosligi voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishda lingvopoetik vositalardan mohirona foydalanishida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir xalqimiz urf-odatlarini, marosimlarini tasvirlashda tilimizda mavjud bo'lgan leksik, frazeologik birliklar qatori lingvopoetik vositalarga ham murojaat qiladi. Shoir tomonidan tanlangan til birliklari har bir holatda ham milliy urf-odatlarni tasvirlashdan tashqari kitobxonga badiiy-estetik ta'sir etish vazifasini ham bajaradi.

2. Shoir individual uslubidagi o'ziga xos xususiyatlardan yana biri shuki, unda ko'pchilik hollarda tasvirlangan voqea-hodisalar muallif tomonidan hikoya qilinmaydi, balki bu vazifa asardagi Elbek baxshi, Elomon baxshi kabilar tilidan berib boriladi. Bu bilan asar qahramonlari tilining jonli va tabiiy, ishonchli bo'lishi ta'minlangan. Chunki xalqimiz azaldan baxshilarni vijdonli, xalq dardini har qanday vaziyatda ham qo'rqmay ayta oladigan kishilar sifatida biladilar. Ana shu xususiyatni hisobga olgan Usmon Azim voqealarni tasvirlashda, baholashda baxshiyona uslub orqali ajdodlar madaniy va ma'naviy merosiga hurmat ruhini kitobxon ongiga singdirishga intiladi va buning uddasidan chiqadi. Bu esa matndagi poetik ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

3. Usmon Azim she'riyatida insonning eng nozik his-tuyg'ulari, turli xil insoniy munosabatlar mahorat bilan tasvirlangan. O'zaro dialogik aloqaga kirishgan odamlar orasidagi suhbatlar kishilar orasidagi munosabatlarning turlicha bo'lishi va ularning ifodalanish usullari ham har xil bo'lishidan dalolat berib turadi. Lingvopoetik vositalar yordamida o'z badiiy qiyofasiga ega bo'lgan matn asosida nutq qaratilgan shaxs faoliyati, xatti-harakati, gap-so'zlaridan muallifning qoniqish yoki qoniqmasligi ma'nolarini ifodalovchi shaxsiy munosabat yotadi.

4. Lingvopoetik vositalar ishtirok etgan dialogik muloqotlarda to'satdan yuzaga kelgan keskin nutqiy vaziyat, muloqotchilarning asabiy holati yangi nutqiy vaziyatlarning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Bu esa o'z navbatida o'sha matnda shoir tomonidan ma'lum leksemalarga ma'no kuchaytirish, ta'kid kabi qo'shimcha ma'nolar yuklanishiga sabab bo'ladi. Masalan, Elbek baxshi va Oytumanning to'satdan uchrashib qolishi yangi nutqiy vaziyatning yuzaga kelishini ta'minlagan.

5. O'zbek xalq og'zaki ijodi xalqimiz ma'naviy hayotining qanday bo'lishini belgilab beruvchi manbalardan biri bo'lib, Usmon Azim ijodiga ham samarali ta'sir ko'rsatgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida qo'llanuvchi lingvopoetik vositalar turli tuman bo'lib, ular Usmon Azim she'riyatida yangidan yangi badiiy tasvirlar, ruhiy holatlar ifodasining yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Poetik matnda ishtirok etgan kishilar tomonidan sodir etilgan xatti-harakat matn tabiatini belgilab beradi. Muloqot ishtirokchilarining turli xil his-tuyg'ularning, ichki kechinmalarning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Shuning uchun Usmon Azim o'zi tasvirlayotgan qahramonlarning nutq jarayonidagi ruhiy ahvolidan kelib chiqib, ularning holatiga mos keluvchi til birliklaridan, turli ifoda-tasvir vositalaridan foydalanadi.

UMUMIY XULOSA

1. Insonning qanday jamiyatda voyaga yetganligi, qanday oilada tarbiya topganligi, e'tiqodi, qanday g'oyalar bilan yashayotganligi, ma'naviy qiyofasi, voqeylikda bo'layotgan har bir o'zgarishni qay darajada idrok qilishi uning eng nozik his-tuyg'ulari ifodasi bo'lgan badiiy matnlarda turli lingvopoetik vositalar yordamida namoyon bo'ladi. Lingvopoetik vositalar badiiy matnning asosiy mazmunini kitobxonga badiiy tarzda yetkazishning muhim vositalari hisoblanadi.

Badiiy matnlar matnning boshqa turlaridan til birliklarining qo'llanishi, leksik-frazeologik birliklar, lingvopoetik vositalarga boyligi bilan ajralib turadi. Badiiy matn xalqimizning asrlar mobaynida shakllangan va san'at darajasiga ko'tarilgan badiiy ijodi mahsuli bo'lib, u xalqimizning og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqimizning milliy qiyofasini aks ettiruvchi urf-odatlar, marosimlar, an'analar badiiy matnlarda turli lingvopoetik vositalar orqali o'quvchiga yetkazib beriladi. Badiiy ijod nafosat, go'zallikni idrok etishning o'ziga xos usuli ham bo'lib, unda xalqimizning ijtimoiy hayot tarzi, kechasi va buguni, ertasi, ma'naviy qadriyatlari, e'tiqodi kabilar o'z aksini topadi. Bularning barchasi badiiy ijod vositasida namoyon bo'ladi. Badiiy matnda til bajaradigan eng muhim ijtimoiy vazifalardan biri – ta'sir etish doimo birinchi o'rinda turadi.

2. Badiiy matnlarni o'rganish o'zbek ijodkorlarining muallif nutqi va personaj nutqini individuallashtirish, portret, turli tabiat manzaralari va poetik obraz yaratishda ifoda-tasvir, lingvopoetik vositalaridan, leksik-frazeologik resurslar, xalq tili birliklaridan unumli foydalanish mahorati, ularning o'zbek adabiy tili xazinasini boyitishga qo'shgan munosib hissalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim ijodida qo'llanilgan tovushdan tortib butun boshli gapgacha bo'lgan lingvistik birliklar she'riy asarlar tilida kitobxonga matn mazmuni to'g'risida ma'lumot yetkazish bilan chegaralanib qolmaydi. Ularni qo'llashda Usmon Azim kitobxonga ta'sir etish maqsadini ham ko'zlagan. Shunga ko'ra lingvopoetika badiiy matnlarda qo'llanilgan birliklarning badiiy-estetik vazifalarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Lingvopoetika tilshunoslikning alohida

bir bo‘limi sifatida badiiy matnlarni tadqiq etadi, shoir va yozuvchilar individual uslubi, til birliklarining badiiy matnlardagi o‘rni va vazifasi haqida ma’lumotlar beradi.

3.Usmon Azim ijodida she’riy asarlar tilining badiiy jihatdan obrazi va bo‘yoqdor, ifodali va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘xshatish, metafora ,sinekdoxa, metonimiya, antiteza, jonlantirish kabilar faol ishtirok etgan. Usmon Azim poetik matnlarda jamiyat hayotida, kishilarning kundalik turmushida yuz berayotgan turli voqea-hodisa, narsalarni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq gavdalandirish uchun o‘xshatish, metafora, metonimiya, jonlantirish kabi vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Bunda ular lingvopoetik vosita sifatida kitobxonga badiiy-estetik ta’sir etish vazifasini bajaradi. Usmon Azim tilimiz qonun-qoidalariga amal qilgan holda o‘rni bilan o‘ziga xos betakror poetik manzaralar, ruhiy holatlar tasvirlarini yaratadi.Lingvopoetik vositalar shoir asarlarida tilga olingan tushunchalar, fikr va tasavvurlarni ma’lum bir obrazlar sifatida kitobxon ongida muhrlaydi hamda badiiy-estetik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

4.Usmon Azim ijodida individuallik u tomonidan qo‘llanilgan lingvopoetik vositalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning she’riy asarlari tilida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan metonimiyalarni, sinekdoxalar va jonlantirishlarni ko‘plab uchratish mumkin. Usmon Azim tomonidan to‘g‘ri tanlangan va o‘rinli ishlatilgan lingvopoetik vositalar o‘zlarining poetik ta’sirchanligi,matn mazmuniga bog‘liqligi, kitobxon ruhiyatiga ta’sir etib, unda turli his-tuyg‘ularni uyg‘ota olishi bilan boshqa lisoniy vositalardan farqlanib turadi.Bu ham Usmon Azimning o‘ziga xos so‘z san’atkori ekanligidan dalolat berib turadi. Shoir ijodida lingvopoetik vositalar lirik qahramon ruhiyatini ochib berishning eng qulay vositalaridan ekanligi ma’lum bo‘ladi. Insoniy munosabatlar so‘zlovchining nutq qaratilgan shaxsga bo‘lgan munosabati qanday ekanligiga qarab ijobiy yoki salbiy tushunchalarni ifodalaydi. Lingvopoetik vositalar munosabat ifodalovchi, baholovchi birlik sifatida Usmon Azim ijodida muhim o‘rin tutadi.

5. Usmon Azim ijodida yaqqol boʻrtib turadigan jihat shuki, unda shoir tilimizda mavjud boʻlgan, badiiy ijodda tez-tez murojaat qilinaverib maʼlum darajada oʻz badiiy-estetik qimmatini yoʻqotgan vositalardan foydalanilmaydi. Balki shoir hayotni teran koʻz bilan kuzatadi, u tabiat va jamiyat hayotida boshqalar koʻra olmagan jihatlarni koʻra oladi va ularni sheʼriyatga koʻchirish bilan oʻz maqsadiga erishadi. Shuning uchun shoir tomonidan favqulodda hosil qilingan noyob va obrazli ifodalar kitobxonni oʻziga jalb etadi, tanlangan ifodalarda Usmon Azimga xos badiiy tafakkur, asosli va mantiqiy xulosalar aks etadi. Bu esa Usmon Azimning mustaqilligimizning noyob kuychisi, badiiy ijodning mohir sanʼatkori ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Ijtimoiy siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008, -175 bet.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981, -60 бет.
3. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987, – 88 бет.
4. Азим Усмон. Сайланма: Шеърлар. -Тошкент: Шарқ, 1995.
5. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент, 1962.
6. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз... дисс. автореф. -Тошкент, 2010.
7. Каримов С.А. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994.
8. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. - Самарқанд: Зарафшон, 1992, – 140 бет.
9. Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс... док.филол.наук. – Ташкент, 1992.
10. Махмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006 ,Н2(11).
11. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида. –Филология -10. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
12. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. –Тошкент, Фан, 1991.

- 13.Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқининг маданияти.-Тошкент, 2009.
- 14.Мухторов А. Морфемика. Сўз ясашиши. –Сам., 1988, -52 бет.
- 15.Нурмонов А., Искандарова Ш.Тилшунослик назарияси. Ўқув қўлланмаси (магистрлар учун). – Тошкент, 2008.
- 16.Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Шарқ, 2002. – 352 бет.
- 17.Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 бет.
- 18.Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975. -96 бет.
- 19.Қўнғуров Р. Танланган асарлар. -Самарқанд: СамДУ, 2008.
- 20.Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977, – 112 бет.
- 21.Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006.
- 22.Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981.
- 23.Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор , 2006.
- 24.Сувонова Р.А. Ўзбек тилида метонимия, - Тошкент, 2003, – 108 бет.
- 25.Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
- 26.Умурқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
- 27.Умуров Х. Адабиёт назарияси.- Тошкент: Шарқ, 2002, -256 бет.
- 28.Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007.
- 29.Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили.- Тошкент,2007.
- 30.Йўлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.док... дисс.автореф. – Тошкент, 2009.
- 31.Йўлдошев Б. Бадиий асар тили ва услубини ўрганиш // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), - Самарқанд, СамДУ, 1980.

- 32.Йўлдошев Б. Тилнинг ижтимоий моҳияти. – Самарқанд: СамДУ, 2012, - 160 бет.
- 33.Йўлдошев Б. Бадиий асар тили ва услубини ўрганиш // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари (илмий мақолалар тўплами), - Самарқанд: СамДУ, 1980.
- 34.Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. - Тошкент: Фан, 1991, – 160 бет.
- 35.Шомақсудов А.,Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ.Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1983. -248 бет.
- 36.Шукуров Н. Услублар ва жанрлар.- Тошкент, 1973.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1. USMON AZIM SHE'RIYATIDA LINGVOPOETIK	
VOSITALARNING QO`LLANISHI.....	10
2.USMON AZIM SHE'RIYATIDA MILLIY AN'ANA VA	
QADRIYATLARNI IFODALASHDA LINGVOPOETIK	
VOSITALARNING O`RNI.....	53
UMUMIY XULOSA.....	74
ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	77